

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI**

Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrası

G‘IYOSOV ATXAM XASANBOY O‘G‘LI

**MILLATLARARO MUNOSABATLARNI IJTIMOIIY-SIYOSIIY
VA MADANIY-MA'NAVIY OMILLARI**

BITIRUV MALAKAVIIY ISHI

NAMANGAN-2015

M U N D A R I J A

KIRISH.....

**I. BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO
MUNOASABATLARNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

1.1.O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari

1.2.I.A.Karimov asarlarida millatlararo munosabatlarning yoritilishi.....

**II. BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO
MUNOSABATLARNING MA'NAVIY JIHATLARI**

2.1.Mustaqil O'zbekistonda milliy va ma'naviy munosabatlar.....

2.2.O'zbekiston Respublikasini millatlararo munosabatlarning shakllanishiga doir
hamkorlikdagi madaniy faoliyati

XULOSA.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....3

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi Har bir xalq, har bir millat mustaqillikni orzu qiladi. O‘zbek xalqi ana shu orzusiga erishdi. -Endigi dolzarb vazifamiz, – deydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, – bu jarayonlarning ilmiy – nazariy asoslarini, ularning yangi–yangi qirralarini mukammal ochib berish, o‘qituvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo‘nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo‘shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat¹. Mustaqillik – imkoniyat beradi, yo‘l ochadi, ammo bu imkoniyatdan foydalanib, mamlakat taraqqiyotini yangi darajaga ko‘tarish bizga, bizning mehnatimiz, uyushqoqligimiz, tashabbuskorligimizga bog‘liq. O‘zbekiston aholisining, uyushqoqligida, birga harakati va mehnatining samaradorligidadir. Bu borada yuksak ko‘rsatkichlarga erishmoq uchun mamlakatimizning barcha aholisi o‘z mehnatining zoe ketmasligiga, lekin bu natijalarga erishishda qator qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ulardan biri O‘zbekiston aholisining ko‘p millat va elatlardan tashkil topganligidir. Ularning har biri o‘z tili, milliy urf – odatlari, milliy madaniyati, ma‘naviyati, qoida va an‘analariga ega. Bu narsalarni hech bir vaqt inkor etib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov bir qator ma‘ruzalari va asarlarida to‘xtalib o‘tganlar, hamda konseptual fikrlarni bildirganlar. —Jamiyatni ma‘naviy yangilashdan bosh maqsad – yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ko‘p – ko‘p muhim masalalardan iborat². Yuqorida aytilgan mulohazalardan ma‘lum bo‘lib turibdiki, O‘zbekiston aholisini jipslashtirish, birlashtirish mamlakatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu maqsadga erishmoq uchun millat nima, nima uchun har bir millat o‘ziga hos til, madaniyat, urf – odatlar va an‘analarga ega, ularni qanday qilib inobatga olmoq

¹ Karimov. I. A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –Toshkent: O‘zbekiston, 2009. –B. 22.

² Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq etiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –Toshkent: —O‘zbekiston, 2000, –B. 24.

mumkin va darkor, millatlarning o‘zaro munosabatlarida birinchi navbatda qanday jihatlar bilan hisoblashmoq zarur, - bularning hammasi mamlakatimizning har bir fuqarosiga ma‘lum bo‘lishi kerak.

2015 yilga mamlakatimizda Keksalarni e'zozlash yili, deb nom berilishida ham ezgu maqsadlar mujassam, chunki, qaysi millat vakili bo‘lishidan qat'iy nazar O‘zbekiston respublikasida istiqomat qilayotgan keksalarni ijtimoiy himoyalash bunda asosiy masaladir.

Hukumatimiz tayyorlayotgan dasturda keksa avlod vakillari, avvalo, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga ko‘rsatiladigan tibbiy va ijtimoiy xizmat darajasi va sifatini oshirish, muhtojlarni yordamchi va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash, tumanlar va mahallalarda qariyalarimiz uchun muloqot markazlari, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, turli klublar tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘zda tutilishi lozim. Muhtasar aytganda, bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singan, honadonlarimizning fayzi bo‘lgan mo‘tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimiz, deb qabul qilishimiz darkor.¹

Shuningdek, mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan ham izohlanadi.

Birinchidan, O‘zbekistondagi barcha millatlar va elatlar orasida nizo, norozilik, g‘amginlik, yotsirash, xudbinlik kabi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmaydi, mamlakatimiz aholisining totuvligi, hamjihatligi, hamkorligi, o‘zaro bir – biriga bo‘lgan hurmati o‘sib, mustahkamlab boradi.² Bo‘ o‘z o‘zidan millatlararo munosabatlarda har bir

¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir// Xalq so‘zi 2015-yil 11-aprel

² Xonazarov Q. Mustaqillik va milly munosabatlarning rivojlanishi. –Toshkent, .2001. –B. 6.

xalq va millatning milliy an'ana va qadriyatlariga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishni taqazo etadi. Zero, Prezidentimiz I. A. Karimovning -O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli risolasida ta'kidlaganidek, -jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yahlitligini ta'minlash, islohotlarini chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.¹

Ikkinchidan, Jamiyatimizda barqarorlik, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlikni saqlab qolishda mintaqamizda sodir bo'layotgan turli hil mojarolarning mohiyatini chuqur anglab etish, ularni keltirib chiqarayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqarorlikni saqlab qolish faqat fuqarolarning tinch – totuv yashashining, shuningdek, jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy ma'naviy yangilanish va yuksalishning asosiy garovidir. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, -bugungi kunda asosiy vazifamiz - mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro obro'sini oshirish, xonadonimizdagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va totuvlikka nisbatan bo'layotgan har turli taxdit va xavf – xatarlarga nisbatan ogoh va hushyor turishdir».

Uchinchidan, jamiyatimizning har bir qatlamiga umuminsoniylikning ustuvorligi, milliy qadriyatlarga sodiqligi, insonparvarlik; vijdon erkinligi, fikrlar hilma-hilligi; demokratiya, kuchli davlatdan – kuchli jamiyatga o'tish, jamiyat hayotini erkinlashtirish g'oyalarini singdirish lozim. Bular o'z navbatida umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini talablariga to'la to'kis mos keladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyat hayotining, hususan mafkuraviy jarayonlarning ham huquqiy me'yorlari aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Toshkent: O'zbekiston, 1999.-B. 19.

nazar, qonun oldida tengdir", ¹ deb belgilab qo'yilgan. Albatta, davlat, jamiyat, siyosiy tizimining o'zagi, mamlakat barqarorligi va izchil taraqqiyoti uchun mas'ul bo'lgan siyosiy unstitutdir. Shu manoda, u jamiyatning mustahkam jipslashuvi, fikrlar hilma – hilligi va qarashlar rang–barangligi asosida hayotdagi jarayonlarning muvofiqlashuvidan manfaatdordir.

To'rtinchidan, Bugungi globallashuv sharoitida jahonning turli mamlakatlarida turli qonli to'qnashuv va siyosiy tortishuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar kechayotgan bir paytda O'zbekiston Respublikasida tinch-osuda, millatlararo hamjihatlikda odamlar ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirmoqdalar.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov joriy yilning 9-may kuni Xotira va qadrlash kuni munosabati ommaviy axborot vositalari vakillari bilan qilgan muloqotida ta'kidlanganidek, bu dunyoda g'animat ekanimizni esdan chiqarmasdan, beshafqat urushda qatnashgan, front ortida o'zini ayamadan mehnat qilgan vatandoshlarimizni qadrlash, e'zozlash, umrini uzaytirish, ularni eslab, xolidan xabar olish, ruhini ko'tarish-bunday ezg'u ishlar barchamizning eng oliyjanob burchimiz bo'lishi shart². Bu fikrlar o'zbek xalqining ikkinchi jahon urushi yillaridagi millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglik borasidagi ibrat namunasini yodga soladi va bundan kelib chiqib aytish mumkin bo'ladiki, millatlararo munosabatlarda o'zaro hurmat va ehtirom o'zbek xalqining milliy qadriyati va madaniyatining ajralmas qismi bo'lib kelgan.

Oltinchidan, «Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Тошкент: Ўзбекистон, 2014. –Б. 6.

² Karimov I. A. O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash-bizning farzandlik burchimizdir.// Xalq so'zi. 2015-yil 10 may

turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayo'tgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart"¹.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlarni ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy omillarini tadqiq etishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi.

- O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yoritish;
- I.A.Karimov asarlarida millatlararo munosabatlarning yoritilishini bayon etish;
- Mustaqil O'zbekistonda milliy va ma'naviy munosabatlarni tahlil etish;
- O'zbekiston Respublikasini millatlararo munosabatlarning shakllanishiga doir hamkorlikdagi madaniy faoliyatini yoritish.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Millatlararo munosabatlar masalasi diyorimizning bir qator tarixchi olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ushbu mavzuda monografiyalar, kitoblar yozilgan. Ularning asarlarida O'zbekistonning xalqaro, jumladan, millatlararo madaniy aloqalar boy daliliy materiallar asosida keng yoritilgan. So'ngi yillarda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, davlatimizning horijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan xalqaro aloqalarga oid bir necha risola va maqolalar e'lon qilindi. Jumladan R. Baxodirov², S. Karimov³, Z.A. Hakimov⁴, A. Xolliev, Ya. G'afforov⁵, S.Otamuratov, J.Ramatov, S.Xusanov⁶, A. Orinboev⁷, X. Murodov, N.Muhammadaliev, G.Jamolov⁸,

¹Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi ` www. gov.uz.

² Baxodirov R. O'zbekiston va Sharq dunyosi. // Xalq so'zi. 1993. 9 sentyabr.,

³ Karimov S. Mustaqillik va madaniyat. G'G' Muloqot. 1992.№12.,

⁴ Hakimov Z.A. Uygonish kunlari.//O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992. 1 yanvar.

⁵ G'afforov Ya., Xolliev A. O'zbekiston va jahon xamjamiyati. –Toshkent: Universitet., 2003.

⁶ Otamuratov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari maruza matni. –Toshkent, 2000

⁷ Orinboev A. Ma'naviyat – millatning kuch – qudrati . -Тошкент, 2006.

⁸ Murodov X., Muhammadaliev N., Jamolov G. O'zbekiston jahon hamajamiyati safida. –Toshkent:G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

M.Lafasov¹ A.Boboyev², Sh.Qudratxo'jayev, A.Qirg'izboyev³, R.Shamsutdinov⁴, A.Xolov, A.Zamonov, N.Bekmurodovlar⁵ tadqiqotlarida millatlararo munosabatlar va milliy madaniy aloqalar alohida tadqiq etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar jarayoni tanlab olindi. Uning predmetini esa millatlararo munosabatlarni ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy omillarini o'zida aks ettirgan uslublar, shakl va mexanizmlardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, millatlararo munosabatlar jarayonida qo'llanma sifatida shuningdek, mavzuga oid tadqiqot ishlarini olib borishda, ma'ruza matni va boshqa o'quv materiallarini yaratishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining nazariy-metodolik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning risola, ma'ruza, nutqlarida, qonun xujjatlarida, diyorimiz hamda xorijiy olimlarning tadqiqotlarida bayon etilgan ijtimoiy tarixiy jarayonlarni, ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etishning kontseptual nazariy qoidalari va tamoyillari tashkil qiladi.

Mavzuning yoritishda bugungi kunda ilmiy izlanishlar olib borishda qabul qilingan haqqoniylik, xolislik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi.

Bitiruv Malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

¹ Lafasov M. O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari. Toshkent, 1995.

² Boboyev A. NATO: hamkorlik, xavfsizlik va ochiklik. // Xalq so'zi gazetasi, 2002 yil 26 noyabr

³ Qudratxo'jayev Sh., Qirg'izboyev A. Terrorizm-taraqqiyot kushandasi. Toshkent, 2002.

⁴ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. –Toshkent: Sharq, 2010

⁵ Xolov A., Zamonov A., Bekmurodov N. O'zbekiston tarixidan mukammal qo'llanma. –Toshkent: Davr press, 2010.

I. BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning nazariy- huquqiy asoslari

Har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush qurishi, xoxish-irodasini amalga oshirilishi, ezgu – maqsad niyatlari huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim. Shu kafolat vatan taraqqiyotini, davlat mustaqilligini, xalqning jipsligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni, mustaqillikning barqarorlikni ta'minlashga shart-sharoit yaratadi. Yuqorida aytilgan kafolat Respublikamiz Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: «Davlatimiz, O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro kelajagining kafolatini Konstitutsiya beradi. Fuqarolarning haq-huquqlari, burchlari konstitutsiyada belgilangan, tegashli qonunlar bilan mustahkamlangan. Maqsadimiz erkin, demokratik huquqiy davlat qurish, adolatli jamiyat barpo etish, Hech bir insonni kamsitmaslik, e'tiqodini hurmat qilish, erkinligini ta'minlash», -deb ko'rsatgan edi. Oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga erishish uchun bugungi O'zbekistonga erkin va ravon fikrlay oladigan, uning hayotida faol ishtirok eta biladigan, o'z so'zini aytishga qodir, o'z vazifa va burchlarini to'g'ri anglab yetgan fuqarolar zarur. Bunday fuqaroni tarbiyalash zamon, taraqqiyotimiz talabi. Bunga qanday erishish mumkin? Demokratik huquqiy davlatning bunyodkorlari huquqiy madaniyati, tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan maqsadimizga erisha olamiz. Mamlakatimizning har bir fuqarosi, siz kabi yoshlar qomusimiz va boshqa qonunlarni o'rganib olishlari zarur. Konstitutsiyani bilmagan, puxta o'rganmagan kishi o'z haq-huquqlarini bilmaydi. Huquqini bilmagan odamning hayoti oxir-oqibatda fojiali tus olishi mumkin. Buning yaqqol misoli Prezidentimizning yuqorida qayd etilgan nutqida ham ko'rishimiz mumkin:

«Madomiki maqsadimiz aniq ekan, inson huquqlari umumxalq muhokamasida qabul qilingan Konstitutsiya himoyasida ekan,-deb nutqini davom ettirgan edi yurtboshimiz, - avlodlarimiz, farzandlarimiz kelajagiga xavf soladigan, millat sha'niga dog' tushiradigan xatti-harakatlar qayerdan paydo bo'layapti?» Bu o'rinda Prezidentimiz bunday qaltis xatti-harakatlarga qo'l urgan kimsalarning qonunni bilmasligi, bilsa ham unga mensimasdan qarashi, hurmat qilmasligida ekanini, ularda huquqiy madaniyatning yo'qligi, yetishmasligini aytmoqchi. Ko'pincha kishilar huquq, qonun, burch, adliya kabi atamalarni, ba'zan tasodifan qonunbuzarlik qilib qonun oldida javobgarlik xolatiga tushib qolganlaridagina eslaydilar. Nega qonunga ro'para bo'lding, deb so'ralganda: «Bunday bo'lishidan xabarim yo'q edi», - deb ko'zini miltillatib, advokatdan najot kutib turadilar. Shuni yaxshi anglashimiz kerakki, qonunni bilmaslik hech qachon aybni yengillashtirmaydi. Biz qonunga mensimaslik bilan qarasak, uni o'rganmasak, hurmat qilmasak shunday noqulay axvolga tushib qolamiz. Qonunni bilish, hurmat qilish jinoyatdan, jinoiy olamdan yiroq yurishning birdan-bir yo'lidir. Qonunga xurmat inson madaniyati va ma'naviyati bo'lib qolganda, bunday jamiyatni boshqarish ham, adolatni qaror toptirish ham oson bo'ladi. Mana shuning uchun ham huquqiy savodxonlikni yuqori darajaga ko'tarish tarbiya borasidagi asosiy ishlarimizdan biri bo'lib qolmog'i kerak. Prezidentimiz huquqiy savodxonlikni oshirish borasidagi vazifa - «o'z xaq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qudratitiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor», deb belgilab berdi. Huquqiy madaniyatni, savodxonlikni rivojlantirmay turib qonunni mensimaydigan buzg'inchilar, o'g'ri va yulg'ichlar, tovlamachilar, laganbardorlar, axloq-odobsizliklar, qo'rqqoqlar, qotilliklar kabi salbiy holatlarning oldini olish, tugatish anchayin mushkul ish. Bunday qonunbuzarlardan avvalo odamlarni, jamiyatni himoya qilish zarur. Yurtboshimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda:

«...davlat davlatligini qilmoqchi bo'lsa, fuqaroni o'z panohiga olishi zarur... Boshqacha aytganda, davlat har bir fuqarosini himoya etishi, unga huquqiy yordam berishi kerak. Qonun oldida barcha barobar. Mamlakat qonunlariga jami fuqaro - yoshidan, millatidan, irqi, dinidan qat'i nazar-barcha barobar bo'ysunmog'i farz». Yana Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, qonun qog'ozda kelib ketsa, jamiyat aslo ravnaq topmaydi, qonun amalda bo'lishi lozim. Yuqoridagilarni bajarish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish adolatli davlatning ma'naviy va ma'rifiy vazifasi. Bizning vazifamiz esa fuqarolar manfaatini ko'zlovchi qonunlarga to'liq rioya etishdan iborat. Qayerda qonunlarga itoat qilinmas ekan, u yerda adolat buziladi, zo'ravonlik vujudga keladi, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar kuchayadi va oxir-oqibatda jamiyat ma'naviy qashshoqlikka giriftor bo'lib, parokandalikka uchraydi. Shuning uchun qonunlarga itoat qilish har bir shaxsning ma'naviy yuksaklik belgisi bo'lishi bilan bir vaqtda jamiyatning barqaror rivojlanishining ham asosiy sharti hisoblanadi. Demokratiya jamiyat taraqqiyoti, uning siyosiy, xuquqiy va ma'naviy jihatlarini, aholi umumiy dunyoqarashini o'zida aks ettiradi. Demokratiya tushunchasi negizida aholining ozodlik, hurriyatga erishishi, erkin yashashi, haqiqat va adolat singari mazmun yotadi. Buyuk bobomiz Amir Temurning «Kuch adolatda» degan so'zi negizida huquqiy demokratik davlatning ham, fuqarolik jamiyatining ham ayrim belgilari, g'oyat insonparvarlik mazmuni va insonning yashash huquqi, uning barcha erkinliklari ham mujassamlashgan. Yuqorida aytilgan fikrlar hozirgi zamon demokratik harakatlar ilg'or tajribasining o'q ildizini, bosh yo'nalishini tashkil etadi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimiy sharq davlatchiligida inson erki, haq-huquqlari ko'p jihatdan himoya qilingan, hamda o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ozodligi va xatti-harakatlari erkinligi ta'min etilgan edi. Bular ayni demokratik jamiyatining muhim va asosiy belgalaridan hisoblanadi. Bizning eng katta ishonchimiz, madad-tayanchimiz—bu o'sib kelayotgan yosh avlodimizdir. Takroran aytamanki, men o'zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va

mustaqilligimiz taqdiri va kelajagini ham ana shu yoshlar qiyofasida, ularning pok qalbi, erkin tafakkuri, mustahkam irodasi va dunyoqarashida ko'raman¹. Biz orzu qilayotgan farovon, ozod va obod hayotga erishishning asosiy sharti shuki, uning qonun-qoidalariga, talablariga bo'ysunib, rioya qilib yashash kerak. Aks holda umuminsoniy taraqqiyotning katta yo'lidan chetga chiqib, yana o'sha og'ir muammolar girdobida qolib ketish xavfi bor². Endi biz butunlay yangi tarixiy sharoitda yashayapmiz. Bunday sharoitda demokratiyani shunchaki «Ozodlik», «Erkinlik», «Xalq hokimiyati» sifatida sodda ravishda tushunmasligimiz kerak. Demokratiyaning har bir elementi yangicha chuqur mazmun bilan boyib borayapti. Chunonchi, demokratayaning madaniyati, ma'rifati odamlar o'rtasidagi munosabatlardan tortib dunyoviy muammolarni hal etishgacha bo'lgan nizo, murosa va yakdillik, uning iqtisod, siyosat va fikrlar xilma-xilligi sharoitidagi vazifalarini ham qamrab olmoqda. Odamlar ongi va tafakkuri kengaygani sari, ularning demokratiyaga munosabatlari ham o'zgarmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni oliy maqsad qilib qo'ydi. Unga erishishning yagona yo'li esa demokratiyani chuqurlashtirishdir. Shuni aytish kerakki, demokratik jamiyatni barpo etishning tamoyillari, dunyo tan olgan, e'tirof etgan, barcha uchun umumiy bo'lgan o'z yo'riqlari mavjud. Bularga qo'yidagilar kiradi: Bevosita fuqaroning o'z xohish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, ozchilikning ko'pchilikka buysunishi, barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, saylash va saylanish huquqi va boshqalar. Bular deyarli barcha mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham qat'iy belgilab qo'yilgan demokratiyaning tartib qoidalaridir. Bu haqda Respublikamiz Prezidenti Islom

¹ Karimov I A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. VII jild, -Тошкент: Ўзбекисон, -Б. 247.

² Karimov I A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. VII jild, -Тошкент: Ўзбекисон, -Б. 247.

Karimov: «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari xam «Ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb aytganlar.¹ Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi», deganda demokratiyani joriy etishning bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan, odamlar ongi va qalbi orqali amalga oshirish kabi o'zbekona tamoyillari mavjudligini ko'rsatadi. Har qanday xalqni-xalq, millatni-millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mafkura – milliy g'oyani shakllantirishning asosiy sharti – odamlarning tafakkuri, dunyoqarashining voqelikka nisbatan ta'sirini inobatga olishdir². Ba'zi odamlar O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyatni shakllantirish faqat qog'ozda, shunchaki og'zaki gap, amalda fuqarolarning barcha imkoniyatlari cheklanayotir, deb da'vo qilmoqdalar. Bu gapni aytganlar nuqul O'zbekistonni Amerika, Olmoniya, Fransiya, Anglya va boshqa bir qator mamlakatlardagi ahvol bilan solishtirishga urinadilar. Bu o'rinda bir narsaga e'tibor berishimiz talab etiladi. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda inson huquqlari, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar borasida to'plangan tajribalar, amalga oshirilgan ishlar ikki yuz yil va undan ham ortiq yillar mobaynida, og'ir kurash va sinov yo'llaridan o'tish orqali vujudga kelgan. Mustaqil O'zbekistonda tarixan qisqa vaqt maboynida, kechagi kundan bugungi kunga o'tgan kunning o'zida G'arb davlatlaridagidek keng miqyosli tadbirni amalga oshirishni talab qilish aqlga sig'maydigan holat. Odamlar dunyoqarashi, fikrlash tarzi va onglilik darajasini bir kun yo bir yilda o'zgartirish sira mumkin emas.³ Shaxsning faqat o'zini o'ylashi, barcha tashabbuslar ostida o'z

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –Toshkent: O'zbekiston, 1995, -B. 10-11.

² Karimov I A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. VII jild, -Тошкент: Ўзбекистон, -Б. 302.

³ Otamuratov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. –Toshkent, 2000. –B. 203.

manfaati turishi, shaxsiy g'amxo'rlik, o'zi uchun yashash, o'zgani o'ylamaslik, barcha umumiy manfaatlardan o'z manfaatlarini ustun qo'yish kabi kayfiyati - demokratiyaning chuqurlashishiga to'sqinlik qiladi. Boz ustiga asrlar davomida xalq turmushiga aylangan qadriyatlarga ham ziddir. Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash, huquqiy savodxonlik, qonunlarga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat, demokratik qadriyatlarga sodiqlik bir tomondan jamiyat ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan omil bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxs ma'naviy komilligini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi. Jamiyatda komillik mezoniga javob beradigan kishilar aksariyat ko'pchilikni tashkil qilsagina ma'naviy barkamollik va iqqisodiy yuksaklikka erishish mumkin bo'ladi.¹² Milliy g'oya keng mazmunga ega. U millatlararo totuvlik va milliy, diniy bagrikenglik g'oyalari bilan o'zaro mushtarak. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, milliy g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yashaydi. Bu jamiyatimizdagi milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi. Millatlararo totuvlik g'oyasi - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir. Bu g'oya - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashning ma'naviy asosidir. Milliy g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi. Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishi Ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, milliy g'oyaning

¹ Otamuratov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent, 2000. –B. 204

ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi illat, bu - tajavvuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat beqarorlik holatiga yuz tushishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm yoki milliy xususiyatlar bilan xisoblashmagan va soxta baynalmilalchilik g'oyasiga asoslangan kommunizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi. O'zbekiston hududida qadim qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. Bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar aynan mahalla muhitida kamol topadi, shu ma'noda, mahallani o'zini o'zi boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin¹. Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqlool mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.²

U do'stona munosabatlar ustun bo'lgan sharoitda ijtimoiy taraqqiyotning omili sifatida maydonga chiqadi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday yozadi: "Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda an'anaviy uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p elatlilik omili davlatlarning siyosiy iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag'batlantiruvchi ta'sir etishini ko'rsatuvchi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu mamlakatlarda etnik guruhlar va irqalar o'rtasida ma'lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko'p elatlilik omili ularning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi to'g'anoqqa aylanib qolmagan, aksincha, taraqqiyotning jadallashuviga yordam bergan millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning

¹ Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir VIII jild, 489-508-betlar..

² Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Тошкент: O'zbekiston, 2001. –Б. 95.

ijtimoiy aqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylangan. Shunday qilib, bu mamlakatlarda ko'p millatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolar jamiyati qurilishning ta'sirchan vositasiga aylanib qolgan" O'zbekiston Prezidenti bu fikrlarni yanada chuqurlashtirib, ko'p millatlilik bizning bebaho boyligimiz ekanligini, hamma narsa undan foydalanishda ekanligini qayta – qayta ta'kidlaydi. Darhaqiqat, har bir millat o'zining betakror madaniy ma'naviy qadriyatlariga ega. Bunday millatlar vakillarining bir mamlakat hududida yashashlari, birgalikda mehnat qilishlari, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zaro ta'sirda bo'lishlari xalqlarning har jihatdan taraqqiyotini tezlashtiradi. Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko'p millatlilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishga yordam beradi, umuminsoniy g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. I.A.Karimov o'z fikrini davom ettirib, shunday yozadi: "Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi, 15 butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiy siyosiy falokatlarga olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan". Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqlol g'oyasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda. Millatlar o'rtasida mojarolarga yo'l qo'ymaslik uchun: etnik siyosatda shaxs huquqlari ximoya qilinishining ustuvor bo'lishini mamlakatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda xal

qiladigan usullarga asosiy yo‘limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urfodat va an‘analari, madaniy merosini rivojaltirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. Ularning har biri o‘z milliy madaniy urf-odatlarini, an‘analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega. O‘zbekistonda bugungi kunda 100 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu yo‘nalishda markazlar tuzish bo‘yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda. O‘zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o‘qitish ishlari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko‘rsatayotganligini ko‘rinmoqda. Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko‘rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O‘zbekiston fuqarosi sifatida o‘z o‘rni borligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O‘zbekiston xalqi - O‘zbekiston fuqarosi ekanligini namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g‘oya atrofida birlashuviga olib boradi. Bashariyat tushunchasi rangorang millatlar va elatlar, shuningdek turli din va irqqa mansub insonlarni o‘ziga qamrab oladi. Demak har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o‘z xalqi, o‘z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o‘z xalqining tili, ruhiyati, an‘analari, qadriyatlari barq urib turadi. Milliy istiqlol g‘oyasi o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra barcha millatlarning umumiy manfaatlarini ro‘yobga chiqaradi. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik hamda ijtimoiy barqarorlik muhitini ta‘minlashga xizmat qiladi. Zotan, har qanday polietnik davlatda turli millatlar o‘rtasidagi munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi omillardan hisoblanadi.¹ Jahon keng, dunyoda mamlakat ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O‘zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy

¹ www.wikipedia.uz/milliy-istiqlol-go'yasi/arg.

tarixi, zahmatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzanlaridek yashashlarida namoyon bo‘lmoqda. Bunday ahillik do‘stlik va hamkorlik o‘zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega, bu asoslar mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, uning 18 – moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat‘iy nazar, qonun oldida tengdir", - degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan¹. E‘tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy histuygulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo‘yilganiga ishonch hosil qilish mumkin. Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat‘iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan; Ikkinchidan, fuqarolarning diniy e‘tiqodidan qat‘iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta‘kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma‘naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo‘lsak mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi. Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilikdan g‘ayri insoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganini alohida qayd etish lozim. Ammo ayrim mintaqalarda tajovuzkor millatchilik g‘oyalari bilan qurollangan ayrim guruhlar diniy aqidaparastlik va irqchilik qarashlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishga urinayotganini ham unutmaslik zarur. Demak muayyan hollarda ular omuxtalashgan shaklda ham chiqishi mumkin. Axborot globallashuvi kuzatilayotgan bugungi kunda turli g‘oyalar hech qanday chegaralarni tan olmay kirib kelishini e‘tiborga oladigan bo‘lsak ushbu tamoyilning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarixiy tajriba ko‘p millatli davlatning barkarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to‘g‘ri belgilab qo‘yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2000 yilda 36 mamlakatda 40 ta, 2001 yilda esa 30 mamlakatda 36 harbiy nizo sodir bo‘lgan Ularning 27 tasi, ya‘ni 75 foizi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Тошкент: Ўзбекистон 2014 . –Б. 6.

bundan 10 yillar oldin boshlangan. Bu nizolarning aksariyati bir mamlakat ichida kechganini e'tiborga oladigan bo'lsak ularning milliy, diniy va irqiy asoslardan kelib chiqqan fuqarolik urushlari ekanini anglatadi. Bemalol aytish mumkinki, jahonning turli nuqtalarida alangalanib turgan bunday nizolar aksariyat hollarda millatlararo munosabatlarda millatlararo totuvlik bag'rikenglikning yo'qligi ham sabab bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, respublikamiz milliy siyosatining asosiy tamoyillari hayotda ham o'z ifodasini topayotganini ta'kidlash zarur. Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqlool yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek keng qamrovli madaniy ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keldi. O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli O'zbekistonliklarning har bir avlodi milliy istiqlool g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliy totuvlik va bag'rikenglikni yanada mustaxkamlab boradi. Zero, milliy g'oya - barcha O'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir' Respublikada istiqomat qilib turgan 130 dan ortiq millat va elatning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega. O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarmas ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin¹. Dunyoning qariyb barcha mamlakatlari ko'p millatli. Respublikamiz

¹ www.wikipedia.uz/milliy-istiqlool-goyasi/

ham ana shunday boy, turfa madaniyatlar gullab yashnayotgan mamlakatlardan biri ekani har bir O'zbekistonlikka iftixor baxsh etadi. O'zbekistonni o'z Vatani deb bilib, uning taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimizdan har biri buni dildan teran his qilmoqdalar. Olib borilayotgan oqilona milliy siyosat tufayli Respublikamizda qaror topgan tinchlik ijtimoiy totuvlik o'zaro hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda.¹ Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu yerda yashovchi xalqlarning milliy an'analari, urf odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuyg'usini qayta qayta his etish "O'zbekiston umumiy uyimiz" degan so'zlar zamiridagi chuqur ma'noni anglab olish imkonini beradi, Dastlabki milliy madaniyat markazlari Koreyslar, Qozoqlar, Yaxudiylar, Armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989 yilda tuzildi. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston hukumatning qaroriga binoan Madaniyat va sport ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanish va ravnaq topishi 1991 yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin isbotlandi. 1992 yilning yanvarida Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. Shu tariqa uning faoliyati negizida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi. Respublika baynalminal madaniyat markazi to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi belgilab qo'yilgan. Markaz milliy madaniy markazlarning faoliyatiga raxbarlik qiladi. O'zbekistonda yashovchi milliy

guruhlarning madaniy ehtiyojlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi.¹

Respublika baynalminal madaniyat markazining moddiy texnikaviy baza bilan ta'minlanishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi, ularning birlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng istiqbollar ochdi. Uning tarixiy va huquqiy asoslari. "Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi –xilma xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi". Din qadimqadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham ularni bir-birlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga egaligidadir. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik tinchlik do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik mehrshafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Hozirgi zaminda bu g'oya ezgulik yo'lida, nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, azalazaldan diyorimizda turli diniy ta'limotlar yonmayon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov, xonaqohlarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga amal qilib yashab kelganlaridan dalolat beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 15 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida"gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor,

¹ www.wikipedia.uz/ milliy istiqlol g'oyasi/

hamjihat bo‘lib, ulug‘ va mushtarak g‘oyalar yo‘lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi. Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo‘lib, ular aslida bir-birlariga zid emas. Diniy bag‘rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonmayon yashab kelganligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik iudaizm kabi dinlar yonmayon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etib kelingan. O‘sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar bir-biridan o‘rganganlar, ustoz shogird bo‘lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan. O‘zbekistonda yangi demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o‘tish davrida diniy bag‘rikenglik qanchalik muhim bo‘lsa, diniy bag‘rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g‘oyalari, o‘z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag‘rikenglik g‘oyasini to‘g‘ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e‘tiqodidan qat‘iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaasiblikka, ayirmachilikka hech qanday o‘rin qolmaydi. Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, Garb sivilizasiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e‘tiqod, an‘ana va urf-odatlar, rangbarang turmush tarzidan iborat ma‘naviy mezonlarni o‘zida aks ettiradi. Bunda yurtimizda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bog‘liq orzu umidlari asrlar osha yonmayon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik bag‘rikenglik qardoshlik tuyg‘ulari uyg‘unlashgan tarzda namoyon bo‘ladi. Bugun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) va murosasida faqat MDX davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo‘lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSh senatori Xillari Klinton xonim, AQShning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta‘kidlab o‘tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bu

xislat o'zining uzoq tarixiga ega. Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan, Yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjihatlik bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Mustaqillik niholi ko'karishi uchun unga tinchlik osoyishtalik totuvlik millatlararo chidam va bardosh kabi kuchli ildizlar kerak. Shunda u har qanday shamol, dovul, bo'ronlarda egilmaydigan bo'lib ulg'ayadi", degan so'zlari hayotga izchillik bilan tadbqiq etilmoqda. Ilgari surilgan mazkur g'oyani amalga oshirishda bugungi kunda ikki muxim masala, bir tomondan, tinchlik va ezgulik dini islomni "soxta islomchi"lardan, ya'ni ma'rifiy islomni siyosiylashgan jangari islomdan himoya qilish, ikkinchi tomondan, ko'p millatli, ko'p dinli jamiyatimizda e'tiqod erkinligi kafolatlangan sharoitda ayrim jamoalarning missionerlik ruhida faoliyat yuritishlarining oldini olish muhim. Bu, o'z navbatida, yurtimizdagi millatlararo hamjihatlik va diniy bagrikenglikni yanada mustahkamlaydi. So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgan harakatlarga sabab bo'lmoqda. Bu harakat va garazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir - dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: "Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq

bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz". Xozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik - turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, ornomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi. Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, birbirlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi. Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida Milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslari turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon Hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir. —Ana shunday milliy rang – baranglik va shu bilan birga, yagona xalqqa xos birlik tuyg'usi – bu nafaqat noyob xususiyati, balki xar birimiz uchun hayotbaxsh ta'sirini va barchamizni o'zaro boyitishdagi ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan ulkan qadriyatdir. Shu ma'noda, bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy yutug'imiz – bu, avvalo, Vatanimiz osmonining musaffoligi, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo ahillik va hamjihatlik, do'stlik va birdamlik muhitidir, desam, ishonchim komilki,

barchangiz bu fikrga qo'shilasiz. Bugungi kunda mamlakatimizda etnik va o'ziga hosligi, tili, urf – odat va an'analarini har tomonlama rivojlantirish va o'zaro boyitish bo'yicha teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona oila 24 bo'lib, do'stlik va inoqlikda hayot kechirmoqda. Yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, vatanimizni yanada ravnaq toptirish, uning xalqaro maydondagi obro' – e'tiborini oshirish maqsadida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish yo'lida ular o'zlarining fidokorona mehnati bilan sissa qo'shayotganini biz yuksak qadrlaymiz. Ta'kidlash joizki mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni rivojlantirish uchun barcha huquqiy asoslar va zarur shart – sharoitlar yaratildi. Bag'rikenglik madaniyatini tarbiyalash va yanada mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda mamlakatimizda milliy madaniy rang – baranglik hayotimizning ajralmas qismi sifatida qaralib, barqarorlikni ta'minlash omili bo'lib hizmat qilayotgani va jamiyatimizning demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan ilgarilab borishida muhim ro'l o'ynayotgani, biz O'zbekiston deb ataydigan umumiy uyumizda turli milliy madaniyatlarning betakror va boy uyg'unligini shakllantirayotgani alohida e'tiborga sazovordir. Bugungi qutlug' ayyomda barcha milliy madaniy markazlarning rahbarlari faollariga muqaddas zaminimizda tichlik va farovonlikni saqlash, farzandlarimiz va nabiralarimizning kelajagi, jamiyatimizda o'zaro hamjihatlik, insonparvarlik va mexr – oqibat muhitini yanada mustahkamlash yo'lida beg'araz va olijanob mehnatlari uchun o'zimning chuqur va samimiy hurmat – ehtiromimni bildiraman. O'tgan 20 yil mobaynida chinakam do'stlik maskaniga aylangan Respublika baynalminal madaniyat markazining ko'p qirrali faoliyati ana shunday yuksak maqsad va vazifalarning amaliy namoyoni bo'lib kelayotgani hammamizni, albatta, xursand qiladi. Xalqimiz bag'rikenglik, o'zaro totuvlik, ahil – inoqlikni yuksak qadrlaydi. Bu xislatlar, ayniqsa, istiqlol yillarida yanada e'zoz topdi. Mustaqillik tufayli ko'p millatli diyorimizda

tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashning muhim omili bo'lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash maqsadida Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan respublika baynalmilal madaniyat markazi 25 (RBMM) tashkil qilindi. Poytaxtimizdagi «—Turkiston» saroyida 20 yanvar kuni Respublika baynalmilal madaniyat markazining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi. Tadbirga milliy madaniy markazlar raxbarlari va faollari, parlament a'zolari davlat va jamoat tashkilotlari, O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan diplomatik korpus vakillari taklif etildi. Ishtirokchilar Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'ydilar. Asosiy qonunimizning 4 – moddasida «—O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf – odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb qayd etilgan.¹ RBMMning tashkil qilinishi uning huquqlari va vazifalarining kengaytirilishi, moddiy – texnikaviy baza bilan taminlanishi milliy madaniy markazlar ishlarini faollashtirdi, ularning birlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng yo'l ochdi. Natijada turli millat vakillarining milliy – ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga ularning milliy til, madaniyat va urf – odatlarining saqlanib qolishi hamda rivojlanishiga hizmat qiladigan milliy madaniy markazlar miqdori yildan yilga ko'payib bordi. Chunonchi 1989 yilda Respublikamizda atiga o'nga yaqin milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1995 yilga kelib ularning soni 70 taga 2000 yilga kelib esa 100 taga etdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 140 dan ziyod milliy madaniy markazlar Respublikamizning etakchi jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bu markazlarning har biri, millatidan qat'i nazar, yurtdoshlarimiz uchun ochiqdir. Ularning barchasi bugungi kunda RBMM boshchiligida umumiy uyimiz – yagona Vatanimiz taqdiri uchun yuksak ma'suliyatni anglash tuyg'usi bilan

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –Toshkent: O'zbekiston, 2014. –B. 26.

yashamoqdalar va bu yoʻlda toʻla hamjihatlik bilan bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilmoqdalar. Bunday yuksak darajadagi eʼtibor natijasida koʻp millatli xalqimizning boy tarixiy – madaniy merosi qayta tiklandi, qadr topdi. Barcha millat vakillarining davlat boshqaruvi, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarda keng va erkin ishtirok etishi kafolatlandi. Bundan tashqari, umumtaʼlim maktablarimizda taʼlimni etti tilda olib borish yoʻlga qoʻyilgani, koʻp sonli millatlar tilida gazeta – jurnallar chop etilayotgani, radio va teledasturlar efirga uzatilayotgani alohida eʼtiborga loyiq. Davlatimiz rahbarining 2012 yi 20 yanvarda qabul qilingan Farmoniga muvofiq, Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 20 yiligi munosabati bilan milliy madaniyat markazlarning bir guruh faollari davlatimizning fahriy unvoni, orden va medallari bilan taqdirlandi. Marosimda ularga Vatanimizning yuksak mukofotlari topshirildi. Tantanali yigʻilishda soʻzga chiqqan Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan madaniyat hodimi, Respublika polyak milliy madaniy markazi faoli, V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litsey boʻlim mudiri Pavel Borisov, —Doʻstlik» ordeni sohibi, Sirdaryo viloyati ozarbayjon milliy madaniy markazi faoli shoir Nasirli Ali Geydar oʻgʻli mamlakatimizda millatlararo tinchlik va totuvlikni yanada mustaxkamlash, Oʻzbekistonda yashayotgan koʻplab millatlar va elatlar vakillari oʻz madaniyatini rivojlantirish uchun barcha shart – sharoitlarni yaratish borasidagi doimiy eʼtibori va gʻamhoʻrligi uchun Prezidentimiz Islom Karimovga samimiy minnatdorlik izhor etdilar.¹ Toshkentda —Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari roli va masʼuliyatini kuchaytirish» mavzuida xalqaro davra suhbatini boʻlib oʻtdi. Tadbir Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini oʻrganish doirasida oʻtkazildi. Xalqaro davra suhbatini respublika

¹ Xalq soʻzi gazetasi. 2012 yil, 21 yanvar

—Mahalla» xayriya jamg'armasi, Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti va —Sukuba» universiteti (Yaponiya) tomonidan tashkil etildi. Tadbirda Hindiston, Xitoy, Norvegiya, Sloveniya, AQSh, Janubiy Koreya va Yaponiyadan olimlar, ekspertlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, fuqarolar yig'inlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ishtirok etdi. Forum qatnashchilari O'zbekistonda mustaqillikka erishilganidan so'ng davlat va jamiyat qurilishi sohasida tub islohotlar bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirib kelinayotganini, ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish ekanini ta'kidladilar. Davra suhbat qatnashchilarining umumiy fikriga ko'ra, Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Konsepsiya – bu davlat va jamiyatni rivojlantirishning prinsipial yangi bosqichida mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish strategiyasi bo'lib, O'zbekistonning zamonaviy rivojlangan, demokratik davlatlar qatoriga qo'shilishi, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallashi va xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini ta'minlashga qaratilgan. Ekspertlarning fikricha, fuqarolik jamiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahallani shakllantirish hamda rivojlantirish borasida O'zbekistonning —Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini bosqichma-bosqich izchil amalga oshirishga asoslangan tajribasi katta qiziqish uyg'otmoqda va undan demokratiya yo'lidan borayotgan boshqa davlatlar ham samarali foydalanishi mumkin. Mahalla O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning muhim asoslaridan hisoblanishi, o'z faoliyati orqali fuqarolarning davlat boshqaruvida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim vazifalarini hal etishda bevosita ishtirok etish kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlayotgani ta'kidlandi. —O'zbekiston mustaqillikka erishgach, qisqa vaqt ichida mintaqadagi yetakchi davlatga aylandi, – dedi J.Neru nomidagi universitet professori Kulbxushan Variko (Hindiston). – Prezidentingiz

Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan va rivojlanishning —o'zbek modeli» deb nom olgan islohotlarning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mamlakat suvereniteti va barqarorligini mustahkamlash, demokratiyani rivojlantirish, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashida muhim omil bo'ldi. Ushbu siyosat boshqa davlatlardagi —shok terapiyasi» choralaridan tubdan farq qiladi va O'zbekiston mustaqilligining 20 yilligi arafasida shuni ishonch bilan aytish mumkinki, —o'zbek modeli» samaradorligini vaqtning o'zi ko'rsatib berdi. Bu yerdagi noyob mahalla instituti dunyodagi ko'plab mamlakatlar uchun namuna bo'la oladi. O'zbekistonda mahalla faoliyatining huquqiy asoslari shakllangan va yanada mustahkamlanmoqda. Mahalla maqomi O'zbekiston Konstitusiyasida mustahkamlangan bo'lib, uning vazifalari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi milliy qonunchilikda aniq belgilangan. Davlatingiz rahbari institusional rivojlanishning yangi – mahalla vazifalarini amalga oshirish orqali milliy va oilaviy qadriyatlarni qayta tiklash tizimini yaratdi. O'zbekiston Prezidenti —Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida o'z konsepsiyasida jamiyat hayotida mahalla rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan qator yangi va muhim tashabbuslarni ilgari surdi». Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanayotgani, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratayotgani, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashayotgani ta'kidlangan. Shu munosabat bilan forum qatnashchilari o'z chiqishlarida fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rivojlangan tizimi ekanini qayd etdilar. Istiqlol yillarida O'zbekistonda jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas qismi, kuchli bunyodkorlik salohiyatiga ega

jamoatchilikning o'zini o'zi boshqarishning muhim birlamchi bo'g'ini sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash hamda rivojlantirishga doir tizimli va izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular ilgari mahalliy hokimiyat organlarining alohida huquqlari hisoblangan 30 dan ortiq vazifani bajarmoqda, chunonchi aholini ijtimoiy muhofaza qilish, fuqarolar manfaatlarini himoyalash kabi ko'plab masalalarni samarali hal etmoqda. Mahalla instituti orqali aholini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy muhofaza qilish tizimi amalga joriy etildi. Davra suhbatida ishtirokchilari ushbu tizim asosini o'zbek xalqiga xos ezgulik, mehr-oqibat, bir-biriga yordam berish kabi ko'p asrlik an'analar tashkil etishiga alohida e'tibor qaratdilar. Xorijlik ekspertlar bunday tizimning yaratilishi dunyoda o'xshashi yo'q noyob tajriba hisoblanishini ta'kidladilar. —Sukuba» universiteti prorektori Sujinaka Yutaka (Yaponiya) shunday dedi: —Biz Sharq va G'arbdagi 13 mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini o'rganib chiqdik. Tadqiqot natijalari o'zbek mahallasi – bu boshqa mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish modelidan tubdan farq qiladigan o'ziga xos noyob milliy demokratik institut ekanini yana bir bor tasdiqladi. Mahallaning o'ziga xos ahamiyati shundaki, uning faoliyatida barcha fuqarolar, jumladan, yoshlar va xotin-qizlar ham faol ishtirok etadi. Mahalla jamiyatni demokratlashtirish, tinchlik va millatlararo totuvlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi, unga o'z hududini boshqarish, aholini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy muhofaza qilish, odamlar hayoti bilan bog'liq ko'plab ijtimoiy, gumanitar masalalarni hal etish uchun katta vakolatlar berilgan. Mahalla – bu juda mustahkam va barqaror tuzilma. Mamlakatingizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish davomida davlat o'z vazifalarini bosqichma-bosqich qisqartirib, ularni mahallalarga bermoqda va mahalla, o'z navbatida, bu mas'uliyatni o'z zimmasiga olmoqda. Mahalla tajribasini dunyoda keng qo'llash maqsadga muvofiq bo'lur edi. —Turli mamlakatlarda davlat va jamiyat turlicha

shakllangan, muayyan tajriba va anʼanalar toʻplangan, – dedi Norvegiya mahalliy va mintaqaviy hokimiyatlar assotsiatsiyasining xalqaro loyihalar boʻyicha direktori Elita Sakule. – Jumladan, Norvegiyada jamiyat va davlatni rivojlantirishga doir muhim vazifalarni hal etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va hukumat oʻrtasida ijtimoiy sheriklik modeli rivojlangan. Ayni paytda, Norvegiyada, jumladan, kichik biznes va ijtimoiy yordam koʻrsatish masalasida ijro hokimiyati organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari va boshqa fuqarolik jamiyati tashkilotlarining oʻzaro hamkorligi konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu borada davlatingiz rahbarining mahalla rolini oshirish, jumladan, uni kichik biznesni rivojlantirish markaziga aylantirishga qaratilgan yangi qonunchilik tashabbuslari katta qiziqish uygʻotmoqda. Bu kelgusida zamonaviy fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini shakllantirish, aholining bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Fuqarolarning muhim vazifalarini samarali hal etish, buning uchun mahalliy hamjamiyat saʼy-harakatlarini safarbar qilish boʻyicha Oʻzbekiston tajribasini oʻrganish, menimcha, Norvegiya uchun ham foydali boʻladi». Kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida oʻrta mulkdorlar sinfini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Oʻzbekistonda kichik va oilaviy biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, buning hisobidan fuqarolar farovonligi hamda turmush darajasini oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Bugun ushbu sohada ish bilan band jami aholining 74 foizdan ortigʻi mehnat qilmoqda. Davra suhbatida ishtirokchilari oʻz chiqishlarida Oʻzbekistonda oʻrta mulkdorlar sinfi kichik korxonalar tashkil etilayotgan, ijtimoiy infratuzilma rivojlanib, kasanachilik keng qoʻllanilayotgan mahallalarda shakllanayotganini qayd etdi. Fuqarolar yigʻinlarida fuqarolarni ishga joylashtirish va yangi ixtisosga oʻrgatishga doir ishlar amalga oshirilmoqda. Mahalla tobora oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlik markaziga aylanmoqda. Texas universitetining tarix kafedrasi professori Jeyms Vonning (AQSh) taʼkidlashicha, dunyoda hanuzgacha fuqarolik jamiyati xususida yaxlit tushuncha yoʻq. Yevropa va

Amerikada dastlab kuchli fuqarolik institutlari shakllangan bo'lsa, Sharqning aksariyat mamlakatlarida avval kuchli davlat institutlari tashkil etilib, keyinchalik ular fuqarolik tuzilmalarini shakllantirib, qo'llab-quvvatladi. Amerikalik ekspertning fikriga ko'ra, kelajakda iqtisodiy rivojlanish va jamiyat turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoit yaratadigan globallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishda butun dunyoda milliy mushtaraklikka, davlat suverenitetiga rahna soluvchi tahdidlar paydo bo'ladi. J.Von bunday sharoitda o'zining samaradorligini namoyon qilgan mahalla instituti milliy an'ana va madaniyatni asrab-avaylash, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin, deb hisoblaydi. —Fuqarolarning bunday o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish G'arb davlatlari uchun ham katta ahamiyatga ega. Biz ularning faoliyatini o'rganishimiz va O'zbekiston tajribasini qo'llashimiz lozim», — deb ta'kidladi ekspert.¹ Davra suhbatida O'zbekistonda mahalla haqiqiy demokratiya va aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish maktabiga aylangani qayd etildi. Ochiq va oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga ega masalalarni mustaqil hal etish, bir-biriga o'zaro yordam berish mamlakatimizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari hisoblanadi. Mahallalar barcha darajadagi hokimiyat vakillik organlariga saylovlarda faol ishtirok etmoqda va saylov asosida o'zlari ham shakllanmoqda. Ikki yarim yilda bir marta fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi o'tkazilmoqda. Chunonchi, joriy yilgi saylovlarda 100 ming nafardan ortiq kishini saylash rejalashtirilmoqda. Xorijlik ekspertlarning ta'kidlashicha, dunyoda bu kabi keng ko'lamli demokratik saylovlarga misol topish qiyin. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatni rivojlantirish, o'ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishga qo'shayotgan salmoqli hissasi hisobga olingan holda, ular faoliyatining qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish, mahalla vazifalarini kengaytirish, davlat

¹ www.student.uz

hokimiyati va boshqaruv organlari bilan yaqin hamkorligini ta'minlash, ular o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xorijlik ekspertlar Prezident Islom Karimovning ushbu sohaga taalluqli yangi qonunchilik tashabbuslari o'z vaqtida qabul qilingan va muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladilar. Masalan, —Mintaqaviy muloqot» nodavlat tashkiloti eksperti Katya Gershag (Sloveniya) shunday dedi: —Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari amalga oshirayotgan jamoatchilik nazorati jamiyatning davlat bilan samarali aloqasini ta'minlashning muhim elementi hisoblanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yig'inlari orqali jamiyat ishini boshqarishda ishtirok etayotgani jamoatchilik nazoratining eng samarali shakllaridandir. Uning yordamida fuqarolarning mahalliy hamjamiyat ishlarini ushbu hudud aholisi manfaatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil yuritish huquqi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonning mahalla nazorat vakolatlarini bosqichmabosqich oshirish bo'yicha tajribasini o'rganish boshqa mamlakatlar olimlari va amaliyotchilarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Davlatingiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan Konsepsiyani amalga oshirish davomida Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va hokimiyat organlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikning ayrim ijobiy jihatlaridan foydalanish mumkin. Bu sheriklik samarali ijtimoiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirish hamda o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarishda barcha tomonlar sa'y-harakatlarini birlashtirish, o'zini o'zi boshqarish organlariga kichik tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishi, tegishli hududdagi kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan sifatli xizmat ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish huquqini berishga asoslangan».

—Mahalla – o'zbek xalqining ulkan boyligi bo'lib, ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, barkamol yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda, – dedi Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoni o'rganish instituti yetakchi mutaxassisi Chjao Xueyun. – Ushbu o'zini o'zi

boshqarish organlari faoliyati samarasida jamiyat mustahkamlanmoqda, demokratiya rivojlanmoqda. Ular, haqiqatdan ham, odamlarga yaxshi yashash, biznes, shu jumladan, oilaviy biznes bilan shug'ullanishga ko'maklashmoqda. Boshqa mamlakatlar uchun mahalla faoliyati katta va muhim tajriba hisoblanadi. Prezidentingiz Islom Karimovning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati g'oyat samaralidir. Men davlatingiz rahbarining bu boradagi yangi qonunchilik tashabbuslarini to'la qo'llabquvvatlayman». Davra suhbat qatnashchilari mahalla institutini rivojlantirishga qaratilgan yangi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda qaysi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozimligi haqida ham fikr almashdi. Birinchi navbatda – bu, ijtimoiy-iqtisodiy sohada samarali jamoatchilik nazoratini ta'minlash, aholi keng qatlamlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda mahalla rolini oshirishga qaratilishi lozim. Xususiy mulkni samarali himoya qilishni ta'minlash, fermerlik harakatini mustahkamlash, kichik, oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda mahallaning joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan yaqin o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi normalarni ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. Muxtasar aytganda, xalqaro davra suhbat ishtirokchilari xalqning ko'p asrlik an'analari va istiqlol yillarida demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'yicha O'zbekistonda to'plangan katta tajribani puxta o'rganish zarur, degan xulosaga keldilar. Ular mamlakatimizning bu borada erishgan yutuqlari, belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish barqaror 34 demokratik rivojlanishga intilayotgan dunyoning ko'plab davlatlari uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkinligini alohida qayd etdilar¹. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qo'lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qayerda yengil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan har bir

¹www.ziynet.uz

mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulqatvor normalari ham shuni taqozo etadi. Masalan, dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Ovrupo mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklash rejasi ham buning amaliy namunasi bo'ldi. O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan, shakshubhasiz, samarali foydalanadi. Bironbir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'rko'rona ko'chirib olish to'g'ri emas. Aksincha, aniq ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi. Jahon xalqlari va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha ijobiy tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozisiyasidir. Bu - o'tmish yillarining xatolarini, davlat tuzilishining shakl va usullariga nisbatan mavjud qarashlarni idrok etish natijasidir. Bu, tarkib topgan ijtimoiy voqelikka berilgan real baxodir. Bu O'zbekiston xalqining ijtimoiy taraqqiyoti munosib turmush sharoitiga intilishidir. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarisiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga intilish - tanlab olingan yo'lining asosiy mazmuni va mohiyatidir. Odamlarning ongi va turmushiga uzoq yillar mobaynida, ko'pincha zo'ravonlik yo'li bilan singdirilgan narsalarni bir zumda o'zgartirish mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga va ularni bir-biriga qaramaqarshi qo'yilishga barham berish bilan jamiyatni yangilash va o'zgartirish zarurligiga odamlarning o'zini

ishontirish, harakatga keltiruvchi kuchlarni va mehnatning ragʻbatlantiruvchi omillarini oʻzgartirish mumkin. Mavjud ijtimoiy iqtisodiy muammolarning keskinligi, ularning oʻziga xos xususiyati bu muammolarni hal etishga alohida yondashuvni taqozo etadi. Turmush sharoiti va tarzining milliy xususiyatlari, Sharq madaniyatiga mansublik ham shuni talab etadi. Oʻzbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat oʻz yoʻli respublikani rivojlantirishning milliy istiqlol gʻoyasiga asoslangan quyidagi asosiy oʻziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi. Avvalo, u milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq anʼanalari va urfodatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi oʻtmishdagi anʼanaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari Oʻzbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar toʻgrisida gʻamxoʻrlik qilish, ochiq koʻngillilik millatidan qatʼi nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda boʻlish, oʻzgalar kulfatiga hamdard boʻlish va oʻzaro yordam tuygʻusi kishilar oʻrtasidagi munosabatlarning meʼyori hisoblanadi. Oʻzbeklar diyoriga, oʻz Vataniga mehr-muhabbat, mehnat sevarlik bilimga, ustozlarga, maʼrifat parvarlarga nisbatan alohida hurmat ehtirom - Oʻzbekiston aholisiga xos fazilatlaridir. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarni shakllanishda, islom diniga eʼtiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqinlashganda ham shu omil namoyon boʻladi. Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab oʻtgan Sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qoʻshgan gʻoyat katta hissalar ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli taʼsir oʻtkazgan. Oʻtmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning maʼnaviy ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi. U hamon taʼsir koʻrsatmoqda. Respublikadagi oʻziga xos demografik vaziyat - gʻoyat muxim xususiyatlardan biridir. Respublikamizda aholi va mehnat resurslari yuksak surʼatlar bilan oʻsib bormoqda. Aholining yarmidan koʻprogʻi qishloq joylarda yashaydi va asosan dehqonchilik bilan shugullanadi. Aholi

tarkibida 60 foizdan ko‘prog‘ini bolalar, o‘smirlar, 25 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. O‘z ajdodlari qadimdan yashab kelgan joylarga bog‘langanlik ko‘chib yurishga moyillikning yo‘qligi respublika aholisiga xos xususiyatdir. Respublikaning yana bir xususiyati - aholi milliy tarkibining o‘ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeyi egallaydi. Shu bilan bir vaqtda, Respublika hududida o‘z madaniyati va an‘anasiga ega bo‘lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O‘zbekistonning milliy madaniy jihatdan g‘oyat rang-barangligi milliy o‘zligini anglash va ma‘naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish yo‘lida qudratli omil bo‘lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi. Keyingi o‘n yillar mobaynida ma‘lum qadriyatlarga ega bo‘lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligini ham e‘tiborga olmaslik mumkin emas. Bir tomondan, bu ijtimoiy tenglikka, kafolatlangan mehnat qilish huquqiga, yalpi bepul ta‘lim va tibbiy xizmatga qat‘iy tarafdorlikka intilishida namoyon bo‘lmoqda. Ikkinchi tomondan esa, yakkahokimlikdan iborat ma‘muriy buyruqbozlik tizimi keltirib chiqargan insonning mulkka egalikdan va xo‘jayinlik 37 tuygusidan begonalashtirilganligi, tayyorga ayyorlik ruhiyati yuzaga keltirilganligida ko‘rinadi. Yangilanish va ijtimoiy taraqqiyotning o‘zimiz tanlagan murakkab jarayon bo‘lib, respublika ijtimoiy turning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma‘naviy- madaniy boshqa barcha sohalarini qamrab oladi. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohish irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O‘zbekiston fuqarolarining munosib turmushini ta‘minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis qonunchilik palatasi va senatining qo‘shma majlisidagi (2005 yil 28 yanvar) ma‘ruzasida: mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi haqida gapirganda, shuni alohida ta‘kidlashni istardimki, «boshqariladigan iqtisod», «boshqariladigan demokratiya» deb atalmish modellar bizga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Shu ma‘noda,

mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi. Faqat mana shu asosda, mana shu negizda mamlakatdagi kambag'allik va qoloqlik muammolarini hal etish mumkin va zarur. Inkori etib bo'lmaydigan ushbu haqiqat shu muqaddas zaminimizda yashaydigan har bir insonning qonqoniga, vujudiga singib ketishini istardim», deb ta'kidlaydi

Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir. Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam mustaqillikni qo'lga kiritib, gullab yashnashi va farovonlikka erishishi, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o'rinni egallashi-biz ko'zlayotgan oliy maqsaddir. Bunga Mustaqil O'zbekistonning Konstitusiyasi huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

I.2. I.A.Karimov asarlarida millatlararo munosabatlarning yoritilishi.

Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli risolasi jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini va mamlakatimiz yahlitligini ta'minlash masalasi oltinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu borada siyosatimizning asosiy tamoyillari quyidagicha:

- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- xalqaro hamkorlikni tobora rivojlantirish;
- dunyo mamlakatlari bilan teng huquqlilik asosida sherikchilik qilish;
- barcha muammo va mojarolarni faqat tinch siyosiy va huquqiy vositalar bilan xal etish.

Bu tamoyillar siyosatda oshkoralikka, ochiqlikka, tenglikka va huquqiylikka tayanib ish yuritish taqazo qiladi. Ammo qo'shni respublikalardagi va mintaqamizdagi vaziyat mamlakatimiz suverenitetiga taxdid soluvchi tajovuzkor kuchlardan saqlay oluvchi mustahkam va barqaror xavfsizlik tizimini yaratish zaruriyatini tug'diradi. -Mintaqadagi ahvol, dunyoning boshqa hududlarida vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suverenitetiga, izchil va barqaror rivojiga xavf solishi mumkin bo'lgan kuchlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqazo etmoqda»- deb ta'kidlaydi I. Karimov. Bu jamiyatni boshqarishga yangicha tafakkur usuli bilan qarashni talab qiladi. Xo'sh, yangicha tafakkur usuli nima? Milliy mafkura vositasida yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi. Chunki ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda, ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakuri har xil-izmlar»dan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlarga fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi¹. Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar har qiluvchi ahamiyat kasb etadi. I.Karimovning quyidagi so'zlarini eslab o'tish o'rinli bo'lar edi: ...hozirgi vaqtda dunyoda dunyoda ikki qarama – qarshi qutb barham topgan bo'lsada, turli xil maqsad – manfaatlarini ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad –inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi –

¹ Karimov I A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. VII jild, -Тошкент: Ўзбекистон , -Б. 102.

tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish». Bugungi kunda Er yuzida turli xil davlatlar, xalqlar, millatlar, elatlar, turlicha dinlar, mazxablar o'rtasida bir –birini tushunishga, bir – birini anglashga, bir – birini qo'llab – quvvatlashga intilish kuchaygan. Bu bir – birining nuqtai nazarlari bilan hisoblashga, bir – biriga nisbatan toqatli bo'lishga da'vat etadi. Bu siyosiy tolerantlik demakdir. Bir masalaga turlicha nuqtai nazardan qarash, nuqtai nazarlar xilma –xilligi esa plyuralizm demakdir. Bugungi kunda umuminsoniyat kelajagiga xavf – xatar solib turgan umumbashariy muammolar avj olgan bir davrda yashamoqdamiz. Bunday muammolarni echishga bitta davlat yoki bir mintaqada yashovchi axolining qurbi etmaydi. Shunday vaziyatda ko'pchilik davlatlarning hamkorligi va ittifoqi kerak bo'ladi. Mamlakatlar o'rtasida, davlatlar va xalqlar o'rtasida umumiy ofatlar: xalqaro terrorizm, narkomaniya, uyushgan jinoyatchilik, ekologik ofatlar va boshqalarga qarshi kurashish uchun jahon miqyosidagi umumiy hamkorlikni qaror toptirish zarur. Bunday yondashish globalistik yondashishdir. Ijtimoiy jarayonlarga ko'p tarmoqli, ko'p bosqichli, ko'p yo'nalishli rivojlanuvchi hodisalar sifatida qarash lozimki, ularni tahlil etish uchun dialektik yondashish etarli bo'lmay qoldi. Shu sababli ularga endi sinergetik metodologiyani tatbiq etish mazkur jarayonlarning barcha qirralarini qamrab olishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, voqeilikka kengroq miqyosda, ochiq sistema nuqtai nazaridan, olamning xilma – xilligi va rang – barangliligi, jarayonlarning o'zaro tartibli va tartibsiz iplar bilan murakkab, ko'p tarmoqli bog'lanib ketganligini hisobga oluvchi sinergetik tafakkurga ehtiyoj tug'diradi.¹ Jamiyatni atrofda ro'y berayotgan jarayonlarga ham – ohang boshqarishda yangicha tafakkurga o'tishning, tafakkurni hukmron va zo'ravonlikka asoslangan mafkuraviy tazyiqlardan ozod qilishning, jamiyatda fikr, tafakkur erkinligini qaror toptirishning ahamiyati kattadir. Prezidentimiz I. Karimov —Tafakkur» jurnali muharririning savollariga bergan javoblarida shunday deydi:

¹ Karimov I. A.. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda –Тошкент: Ўзбекистон, 2000, -Б. 329.

—Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko‘ra dahshatlidir». Shunday qilib, ozod tafakkur jamiyatni ijodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, yangicha tafakkurning asosiy belgilaridan biri bo‘lib qoladi. Ma‘lumki, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda revolyutsion va evolyutsion uslublar mavjud. Bu xaqda falsafada quyidagicha fikr ilgari surilgan: ijtimoiy jarayonlar revolyutsion va evolyutsion, ya‘ni inqilobiy va bosqichma bosqich tarzda boradi. Ijtimoiy revolyutsilar jamiyatda keskin, talato‘pli o‘zgarishdir, evolyutsiya esa yangi sifatga asta sekin, bosqichma – bosqich, talofatlarsiz o‘tishdir. Revolyutsion o‘tishda jamiyatning asosiy tayanch nuqtalari singdiriladi, bu esa jamiyatdagi barqarorlikni tubdan o‘zgartiradi, ya‘ni barqarorlik beqarorlik bilan almashiladi. Bunday holat halqning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoliga jiddiy zarar keltiradi, qurbonlar beriladi, ijtimoiy va iqtisodiy talofatlarga duchor qiladi. O‘zbekiston rahbariyati jamiyatni o‘zgartirishda evolyutsion uslubni tanladi va —yangisini qurmasdan eskisini buzmaslik», jamiyat azolarini birdaniga himoyasiz qilib qo‘ymaslik, keskin qashshoqlashtirmaslik yo‘li bilan yangi jamiyatni bunyod qilishga kirishdi. Evolyutsion uslubda jamiyatdagi asosiy ishlab chiqarish vositalari o‘zgarmasdan qolaverdi, ishlab chiqarish usuli esa bosqichma – bosqich o‘zgartirilib boriladi. Bunday sharoitda yangicha ishlab chiqarish ilgari erishilga tajriba va yutuqlarni saqlab qolgan holda, eskirgan tomonlarni asta – sekin yangisiga almashtirish yo‘li bilan siljib boradi. Bunday sharoitda xalq kutilmagan sharoitga tushib qolmasdan, jamiyatdagi o‘zgarishlarga hamohang ravishda o‘zgarib boradi. Evolyutsion uslub eng avvalo xalqning tafakkurida o‘zgarish bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Sodda qilib aytganda, elu yurtimizning osoyishtaligi, osmonimizning musaffoligi, sarhadlarimizning bexatarligi, bugungi kunimizdan rozilik, ertangi hayotga ishonch, onalarimiz va farzandlarimiz yuzidagi tabassum, bu – men o‘z faoliyatimda intiladigan eng oliy maqsaddir. Xalqimizning osoyishtaligi va farovonligi men uchun hamma narsadan afzal . Bu dunyoda inson o‘z mehnati, aql-

g'ayrati bilan ko'p narsaga erishishi mumkin. Boylikka ham, shon-shuhratga ham, ilmiy, ijodiy kashfiyotlarga ham, oila, sevgi baxsh etadigan saodatga ham. Faqat buning uchun, avvalo, insonning uyida, mahalla-kuyda, yurtida, qisqacha aytganda, odamning ko'nglida tinchlikxotirjamlik hukm surishi kerak¹. Tinchlik-omonlik bo'lsa, hamma narsa bo'ladi-islohot ham, bozor iqtisodiyoti ham, jamiyatimizning yangilanishi ham. Aslida hayotimizdagi bugungi barcha islohot, demokratik o'zgarishlardan ko'zlangan maqsad- yurtdoshlarimizning turmushini farovon qilish, ularning haq-huquqlari, manfaatlarini himoya etish. O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy siyosiy vaziyat barqarorligi ba'zi hukmronlik mavqeini saqlab qolishga intilayotgan siyosiy kuchlar va mamlakat ichkarisidagi ekstremistik unsurlarning tajovuz ob'ektlaridan biridir. Shu sababdan, sodda xalqni avrash va chalg'itish orqali millatlararo mojarolarni sun'iy ravishda vujudga keltirish hamda yurtimizda istiqomat qiluvchi turli millat va din vakillari o'rtasida do'stlikka raxna solish yo'li bilan mamlakatimizdagi vaziyatni beqarorlashtirishga urunish O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligiga taxdid soluvchi potensial va real manbalardan biri ekanligini hisobga olmay bo'lmaydi, albatta. Chunki turli millatlar, elatlar, turli hil din vakillari yashaydigan joyda, ular orasida manfaat va maqsadlar hilma – hilligidan turli darajadagi kelishmovchilik va ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Bunday vaziyatlarni hisobga olish, vujudga kelgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish ijtimoiy barqarorlikni saqlashning muhim omilidir.² O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, ko'p millatli davlatda etnik guruhlar o'rtasidagi va millatlar o'rtasidagi munosabatlar milliy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi ta'sirchan omillardan biri ekanligi aniq bo'la boshladi. Bu esa, o'z navbatida, millatlararo munosabatlarda ro'y beradigan xilma –xil ziddiyatli holatlarni, mojarolarni ilmiy tahlil etishni talab qiladi. Bu borada ayniqsa, uzluksiz sotsiologik so'rovlar olib borish

¹ Karimov I A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. VII jild, -Тошкент: Ўзбекистон, -Б. 84.

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б. 331.

vaziyatni aniqroq tahlil etish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday soʻrovlar qaysi joyda qanday ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish kerakligiga yoʻllanma beradi. Maʼlumki, sobiq SSSRda nizolar hal etilmay, etti qulf ortiga yashirilar, koʻzga koʻrinmas holda tobora yigʻila borar va chuqurlashardi. Turgʻunlik yillari —nizosizlik nazariyasi» hukm surar, keskin ijtimoiy ziddiyatlar va millatlararo munosabatlarda mavjud boʻlgan mojarolarni oʻrganish hamda tahlil etish taqiqlanardi. Muammolar mavjud boʻlsa ham, rahbariyat ularni koʻrmaganlikka olar edi. Shu bilan birga ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda nazorat qilib boʻlmaydigan nokonstitutsiyaviy jarayonlarning rivojlanishi ragʻbatlantirilar edi. Bunga sobiq ittifoqdosh respublikalardagi iqtisodiy taraqqiyotning nomutanosibli, baʼzilarning faqat hom ashyo bazasiga va bazilarining esa sanoat markazlariga aylanganligi, milliy maktablar sonining kam boʻlganligi, ish yuritishning hamma joylarda rus tilida olib borilganligi, baʼzi bir milliy urf – odat, rasm – rusm va anʼanalar oʻtkazilishining man etilganligi kabi millatlararo munosabatlarda mavjud boʻlgan salbiy jixatlar misol boʻla oladi. Aholining millatlararo muomila madaniyatini shakllantirishga etarli eʼtibor berilmaganligi ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib kelar edi. Oʻtmishdan farqli oʻlaroq siyosiy oʻzgarishlar tizimining samaradorligi, jamiyat taraqqiyotida evolyutsion uslubga asoslangan yangicha tafakkurga tayanish, siyosatning oshkorligi, voqeilikka boyligi tufayli Oʻzbekistonda umuminsoniy, umummilliy totuvlik va birdamlikka erishilmoqda. Millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri millatchilik va shovinizmdir. Millatchilik boshqa xalqlarni mensimasli, ularga nisbatan murosasizlik va ishonchsizlikda namoyon boʻlib, bir millatni boshqa millatdan ustun qoʻyish psixologiyasi, gʻoyasi, fikri va siyosati, oʻz millatini yuqori qoʻyish, milliy adovat va irqiy nafrat urugʻini sochishdir. Qator hollarda millatchilik va diniy zamin, —diniy afzallik»larga tayangan. Millatchilikning Oʻzbekiston Respublikasining milliy havfsizligiga solinayotgan taxdidlardan biri sifatida baholar ekan, mamlakatimiz Prezidenti siyosiy va boshqa maqsadlarda

—millatchilik o‘yinini» o‘ynashga intilayotgan, siyosiy donolik va sog‘lom aql tushunchalaridan yiroq bo‘lgan kuchlar odamlarning keyinchalik jangari tajovuzkorlikka aylanuvchi ichki his tuyg‘ularning yuqori safarbaligiga ishonadilar, deb ta‘kidlaydi. Millatchilikning yana bir xavfli tomoni shundaki, ulug‘ davlatchilik shovinizmi uchun zamin yaratadi. Albatta uning qarama – qarshi tomoni ham mavjuddir. Millatlararo nizolar yahudiylar vaarablar, turklar va kurdlar, serblar va xorvatlar, bosniyaliklar va albanlar, armanlar va ozorbayjonlar, moldavanlar va gagauzlar, gruzinlar va abxazlarga qanchadan – qancha g‘am – tashvish, azob – uqubatlar olib kelmoqda. Bu ro‘yhatni uzluksiz davom ettirish mumkin. Respublikamiz hamda yaqin qo‘shnilarimizni ham bu ofat cheklab o‘tmadi: Farg‘ona, Bo‘ka, Parkent, O‘sh – xalqimiz xotirasidan fojiya sifatida o‘rin olgan. Inson millatchi bo‘lib ham, jinoyatchi bo‘lib ham tug‘ilmaydi, balki unga aylanadi. Oilalarda va maktablarda bolalarga milliy mafkuramiz ruhida ta‘lim berish va tarbiyalashga etarli e‘tibor berilmas ekan, inson millatchiga yoki milliylikdan begona -manqurt»ga aylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov - Turkiston» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida shunday deydi: ... Shu o‘rinda mustaqillik va istiqlol yo‘lida birinchi qadeam qo‘yayotgan davrda yagona oila bo‘lib yashayotgan ko‘p millatli xalqimizning dolzab shioriga aylanga so‘zlarni eslamochiman. Shu aziz vatan barchamizniki, uning farovon kelajagi va iqboli uchun yashash, kurashish biz uchun eng katta baxtdir. Ishonchim komilki, barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikka chorlayotgan bunday shior milliy g‘oyamiz va tafakkurimizning asosiy mezoniga aylanib qolsa, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizni ham asraydigan ezgu orzularimizni ro‘yobga chiqaradigan asos bo‘lib xizmat qilar edi».¹ Tarix saboqlaridan xulosa chiqarish vaqti ham keldi. Moddiy qiyinchiliklar og‘ir sinov bo‘lsa ham, uni mehnat va sabr – toqat bilan engish mumkin, albatta. Bu g‘oya har bir ota – ona, o‘qituvchi, murabbiy, mahalla oqsoqoli

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б. 333–334.

va faoli qalbida soʻnmas mashʼal kabi yonib, yosh avlod uchun aniq va tushunarli boʻlishi kerak, va faqat shundagina tinchlik va barqarorlik, ezgu maqsadlar va buyuk kelajakka erishish mumkin boʻladi. Yana bir narsani taʼkidlash zarur. Yoshlarning taʼlim – tarbiyasiga nisbatan rasmiyatchilik bu ishni umuman olib bormagandan koʻra zararlidir. Ayrim manfur kimsalarning siyosiy shuhratparastlik, boylik ortirish ilinjida yoshlar ongiga oʻz xalqining qoni evaziga diniy murosasizlik, millatchilik, separatizm, fashizm, mahalliychilik, jinoiy sheriklik kabi-gʻoya va gʻoyacha»larni tiqishtirishga harakat qilishini anglashimiz muhimdir. Ular oʻzlarining bu jirkanch niyatlarini qanday amalga oshirishlarini hammamiz 1999 yil 16 fevralda koʻrdik. Jinoyatchilar, albatta, jazolanadilar. Lekin, bunday fojialarning qaytarilmasligi gʻoyaviy boʻshliq boʻlmasligi uchun hammamiz ham bor imkoniyatlarimizdan foydalanishimiz, qoʻldan kelgancha harakat qilishimiz lozim. Yangicha tafakkur tizimidagi evolyutsion uslub asosida milliy mafkura va uning asosiy oʻzagi boʻlgan milliy gʻoya yotadi. Shuni eslatib oʻtish lozimki, milliy gʻoya – bu faqatgina oʻzbek millatinigina birlashishga chaqiruvchi mavhum shior boʻlmasdan, balki uni yanada kengroq jabhada butun aholini qamrab oluvchi, barchani jipslashtiruvchi omil sifatida ham olib qarash lozim. Biz bu joyda millatidan qatʼi nazar, butun Oʻzbekiston xalqini va ularning har birining shaxsiy, butun jamiyat va davlat miqyosidagi manfaatlarini nazarda tutmoqdamiz. 1994 yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti -Insonning xavfsizligi» dasturini eʼlon qildi. Uning asosiy gʻoyalari quyidagilardan iborat: insonning xavfsizligi boʻlmasdan, u butun xalqning xavfsizligi demakdir; bu faqatgina qurolga egalik qilish orqali erishilgan xavfsizlik boʻlmasdan, u rivojlanish evaziga erishilgan xavfsizlikdir; bu faqatgina davlatlar oʻrtasidagi mojarolardan himoya boʻlib qolmasdan, u xalqlar oʻrtasidagi mojarolardan ham himoyadir. XXI asr arafasida shaxs, uning farovonligi va xavfsizligi milliy va xalqaro xavfsizlikning oʻzagi boʻlib bormoqda. Aniqroq aytganda, bu odamlarning yangi maqsad va ideallar bilan ommaviy – siyosiy uygʻonishida ifodalanmoqda, bu esa shaxsning rivojlanishi

va insonlarning bir – biri bilan kelishishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Jamiyatga yuksak ideallar, g‘oyalar va maqsadlar kerak va bu maqsadlarda uni amalga oshirish texnologiyasi va xarakat dasturini shakllantirish kerak. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, hozirgi vazifa —...yurtimizdagi turli millat, ijtimoiy toifa va kasb – korga mansub bo‘lgan keng ommani oqoxlikka chaqirish, mavjud xavf va taxdidlarning mohiyatini anglab yetish, ular xaqida jamoatchilik fikrini uyg‘otish, eng muhimi milliy g‘oya, milliy mafkura asosida xalqimizni birlashtirish , yanada jipslashtirishdan iboratdir». -Biz, - deb yozadi Prezident, - xalqni birlashtiruvchi, yuksak marralar sari chorlovchi mafkura – milliy g‘oyaning xayotdagi ahamiyati, uning mazmun – mohiyati, ufqlarini umumiy tarzda belgilab oldik. Endi ijtimoiy soha olimlar, mutahassislar, ilg‘or fikrli ziyolilar bu boradadagi izlanishlarni chuqurlashtirib, umumlashgan nazariy hulosalar ishlab chiqishlari, qisqa aytganda, mafkuramizning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari lozim.»¹ Bugungi kunda milliy mafkurani jamiyatda kishilarning xavfsizligi va farovonligi, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatligini idrok etish, umumjamiyat tamoyili bilan ijtimoiy evolyutsiya yo‘lidan borish g‘oyasi orqali shakllantirish mumkin. Bir – biriga yon bosish, toqatlilik, hamdartlik, umumiy ish uchun har birimizning mas‘ulligimiz eng ulug‘ qadriyatlar bo‘lishi lozim. Bizning siyosatimizning bosh yo‘nalishini O‘zbekiston xavfsizligi tashkil etadi. Albatta, hozircha turmushimiz biz orzu etgan darajada emas. Hali yetishmovchiliklar, qiyinchiliklar va yo‘limizda to‘siqlar ham oz emas. Ammo shunday murakkab bir vaziyatda odamlar omonligi, mamlakatimiz tinchligini ta‘minlashga erishayotganimiz, o‘ylaymanki, bizning eng katta yutug‘umizdir¹ . Ma‘lumki, jamiyatda barqarorlik, xavfsizlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni hamda sarxadlarimiz daxlsizligi va yaxlitligini ta‘minlash masalalari davlatimiz rahbari

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. VII jild.-Тошкент: Ўзбекистон., -Б. 102.

tomonidan mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab kun tartibiga qo'yilgan edi. Bu borada ulkan yutuqlarimiz bugungi kunda birgina xalqimiz tomonidan qadrlanib ezozlanibgina qolmasdan, balki xalqaro jamiyatning diqqat markaziga tushdi. Mustaqillikni biz bilan barobar qo'lga kiritgan yangi mustaqil davlatlar orasida O'zbekistonning bu sohada erishgan yutuqlarini barcha tan olmoqda. Shu tufayli ham yurtimiz jahon siyosatida jiddiy mavqega ega bo'lib bormoqda. Lekin 16 fevralda mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtirilgan to'ntarishga urinish bugun ko'pgina vazifalarni qayta ko'rib chiqishni, yangi amaliy yondashuvlarni taqazo etmoqda. Jumladan, baqarorlik, xavfsizlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni hamda sarhadlarimiz daxlsizligi va hududimiz yahlitligini ta'minlash muammolari ham o'zgacha ahamiyat kasb etmoqda, ularga nisbatan yangicha yondashuvlar, amaliy takliflar ishlab chiqish zamon amri, xalqimiz hohish irodasiga aylanmoqda. 16 fevral voqealaridan keyingi bosqich yangi milliy manfaatlar tizimi, yangi rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilishini taqazo etmoqda. Jumladan, hayot – mamot ahamiyatiga ega bo'layotgan milliy manfaatlar majmui bevosita diniy ekstremizm niqobi bilan mamlakat tashqarisi va ichkarisida birlashgan siyosiylashgan terrorchilik kuchlariga qarshi kurash bilan bog'liq. Shu bois, endilikda barqarorlik va xavfsizlik tushunchalari o'zining ilgari sezilmagan boshqa qirralarini namoyon qilmoqda. Ya'ni hayot – mamot ahamiyatiga ega bo'lgan milliy manfaatlar va xavfsizlik strategiyasiga yangi ustuvorlik kirib keldiki, bu, o'z navbatida, davlatimizning tegishli muassasalarining mas'uliyatini beqiyos oshiradi. Biz barpo etayotgan davlat, eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi lozim¹. Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz. Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. III jild. -Тошкент: Ўзбекистон, -Б. 7.

rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir¹. Jahon davlatlari tajribasidan kelib chiqib, XXI ars bo'sag'asida milliy manfaatlarimiz ustuvorliklarini joy – joyiga qo'yishga harakat qilsak, quyidagi holat vujudga kelishi mumkin: Hayot – mamot ahamiyatiga ega ustuvorliklar: milliy davlatchiligimizni shakllantirish jarayonini muttasil bosqichma – bosqich davom ettirish; davlatimizni tanlagan demokratik mustaqillik yo'lidan og'dirish, konstitutsiyaviy soyosiy tuzumni barbod qilishga va qonuniy saylangan rahbariyatga tajovuz qolishga qaratilgan siyosiy terrorchilikka, diniy ekstremizmga zarba berishdan; mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlash; iqtisodiy, madaniy va ma'naviy ravnaqi; uning kuch – qidradi va salohiyatini mustahkamlash uchun rivojlangan demokratik davlatlar tizimidan joy olish; xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyotni uzoq muddat davomida ta'minlash ishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan, o'zaro teng sherikchilikka ko'maklasha oladigan barcha davlatlar va nufuzli tashkilotlar bilan jiddiy, oshkora hamkorlikni yo'lga qo'yish; davlatimizning xalqaro hamda mintaqaviy manfaatlarini mos kelgan davlatlar, xalqaro mintaqaviy ittifoqlar, tashkilotlar bilan xavfsizligimizni ta'minlash nuqtai nazaridan aloqalarni mustahkamlash; yaqin mintaqalarda mavjud bo'lgan siyosiy mojarolarga barham berishning samarali yo'llari, mehanizmini shakllantirish; mamlakatda millatlar va fuqarolararo totuvlik jarayonini yanada kuchaytirish; qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlik tizimini shakllantirish; har qanday xavfni o'z vaqtida bartaraf qila oladigan xavfsizlik tizimini yaratishdan iboratdir.² Eng muhim manfaatlar ustuvorliklari asosini esa, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi islohotlarni chuqurlashtirish; xalqaro xavfsizlik va olam yaxlitlik ishiga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan mintaqaviy xakamlikka da'vo qilish, gegemonizm, va g'oyalariga qarshi ma'rifiy kurash olib

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. III jild .-Тошкент: Ўзбекистон, -Б. 11.

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б. 339.

borish; eng qudratli hamda etakchi davlatlar tomonidan mintaqamizning o'z ta'sir doirasiga kiritilishining oldini olish; turli – tuman tashkilotlardan o'z siyosiy manfaatlari yo'lida foydalanishga intilish tendensiyalariga o'z vaqtida zarba berish; mustaqil demokratik ma'rifiy tashqi va ichki siyosat olib borish singari yo'nalishlar tashkil etadi. Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot – jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir¹. Yana bir haqiqatni takrorlab o'tishga to'g'ri keladi: mustaqillik, tanlangan istiqlool yo'li, avvalambor, har qaysi inson, fuqaro butun jamiyat kelajagi uchun munosib hayot, farovonlik, barqarorlik baxsh etgan taqdirdagina xalqimiz uchun ma'qul bo'lishi muqarrardir². Bu borada ko'zlangan marralarni qo'lga kiritishning bosh kafolati esa davlatimiz ishlab chiqqan demokratik zamonaviy tashqi siyosiy doktrinadir. Bir so'z bilan ifodalaydigan bo'lsak, mamlakatimizda milliy manfaatlar va ustuvorliklarni maqbul darajada amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha shart – sharoitlar; ma'rifiy tinchliksevar, tashqi siyosiy hamda harbiy konsepsiyalar, siyosiy rahbariyatning sobitqadamligi va nihoyat ko'tarinki siyosiy ruh shakllangan. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizning barqarorlik, tinchlik, taraqqiyoti hamda millatlararo totuvlikni taq'minlash ishi tashqi siyosiy ustuvorliklarga qay darajada bog'liq ekanligidan guvohlik beradi. Yutrboshimiz Oliy Majlisning XIV sessiyasida qilgan ma'ruzasi hamda keyingi turli nufuzli darajalarda chiqishlarida mintaqada, va umuman, dunyoning boshqa qismlarida vaziyatning keskinlashganligi O'zbekiston Respublikasi xalqining umumiy kayfiyatiga ta'sir qilishini inobatga olib, ba'zi bir aniq chora – tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarurligini uqtirgan edi.³ Jahon miqyosida voqealarning borishi shundan dalolat beradiki, insoniyat hamon osoyishta yashash imkoniyatlariga ehtiyoj sezib turmoqda. Ammo, kunda – kunora uning tinchligi va osoyishtaligi, kelajakka umid to'la ko'z bilan boqa olishiga xalaqit

¹ Karimov I. A. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga hizmat qilsin. II jild. –Тошкент: Ўзбекистон, -Б. 261.

² Karimov I. A. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga hizmat qilsin. II jild. –Тошкент: Ўзбекистон, -Б. 268.

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б. 340–341

berayotgan turli – tuman nohush jarayonlar, kishilarning umriga zomin bo‘layotgan to‘qnashuvlar yuz bermoqda. Dunyoning turli joylarida har hil sabab va bahonalar bilan harbiy to‘qnashuvlar davom etmoqda. —Kichik miqyosdagi» urushlar ko‘paymoqda. Umuman, qaysi g‘oyaga, me‘yorlarga tayanmasin, urushning har qanday turi insonning tabiiy haq – huquqlariga ziddir. Millatning xavfsizligini ta‘minlash nuqtai nazaridan urush xarakatlarining birontasini oqlash mumkin emas. Hatto, dunyodagi eng demokratik, qudratli davlat yoki davlatlar ittifoqiga ham tinch aholiga qurbonlar keltiruvchi harbiy urinishlarni amalga oshirish huquqi berilmagan. Lekin, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning etarli darajada kafolatlanmasdan kelinayotganligi, yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, -bizdan mavjud va potensial xavf – xatarlarning oldini olish, chegaralarimiz daxlsizligi va huquqimiz yahlitligini ta‘minlashga qodir bo‘lgan xavfsizlik tizimini barpo etishni talab qilmoqda». Qurolli Kuchlarni, chegara va ichki qo‘shinlarimizni davlat siyosatiga monand holda takomillashtirish va chuqur, bosqichma – bosqich isloh qilish ishi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarilmoqda O‘zbekiston suveren davlat sifatida o‘z milliy manfaatlariga sodiq qolgan holda, sarhadlarimizni etarli darajada himoya qilish va saqlashga yo‘naltirilgan zarur chora – tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu ishlarning barchasi mamlakatimizda ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish, kishilarning tinch va bunyodkorlik mehnatini, ijtimoiy barqarorlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Prezidentimiz fikriga tayanib aytish mumkinki, bugun mustaqillik davrida, 2700 yillik tarixga ega o‘zbek davlatchiligi tom ma‘noda qayta tiklanayotgan, ravnaq topayotgan bir paytda Vatanimiz hudud va sarxadlari yanada yangi ma‘no kasb etmoqda. Prezidentimiz nazdida bugun O‘zbekistonliklarning ongida davlat hududi va chegara alohida iftihar tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilmoqda. Sarhadlarimiz daxlsizligi va hududimiz yahlitligi umumjamiyat, umummillat qadriyatlari safidan o‘rin olib, mamlakatdagi barqarorlik, xavfsizlik, millatlar va

fuqarolararo totuvlikning bosh tayanchiga aylanmoqda.¹ Agar biz o'z kuch, salohiyatiga ishonadigan, boqimandalikni or deb biladigan, eng rivojlangan mamlakatlarning ilg'or kishilari bilan tepa-teng muomala qila oladigan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata biladigan, bu murakkab, beshafqat hayotning pastu baland, tangu tor ko'chalaridan Alloh bergan aql-zakovati bilan to'g'ri yo'lni adashmay topa olishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirsak, o'ylaymanki, o'z maqsadimizga to'la erishgan bo'lamiz. Respublikaning har bir fuqarosi respublika taqdiridagi tarixiy o'zgarishlarda ishtirok etayotganligini, kelajak uchun shaxsiy mas'uliyatini haqiqiy his etgan taqdirdagina xalqimiz chinakam erkin va baxtiyor kuchli davlat qurishi mumkin. Agar yurtimizning dardlarini anglamasak, ajdodlarimizning ozodlik haqidagi muqaddas vasiyatlarini amalga oshirmasak, aytinglar, aziz birodarlar, biz nima degan odam bo'lamiz? Agar yurtimizning chin ma'noda mustaqil bo'lishini ta'min etolmasak, keyin qanday bosh ko'tarib yuramiz

¹ I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б. 344.

II . BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MA'NAVIY JIHATLARI

2.1. Mustaqil O'zbekistonda milliy va ma'naviy munosabatlar

Xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.¹ Qadimiy zamonlardan beri o'zbeklar bilan bir qatorda milliy hududimizda tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, uyg'urlar va boshqa millat vakillari istiqomat qilganlar. Ulardan tashqari elimizda qo'shni davlatlardan kelgan va bu yerda joylashib qolgan eroniylar, afg'onlar, hindlar, xitoylar bor edilar. O'zbekiston mustaqilligi 1991 yilda e'lon qilingandan so'ng bozor munosabatlari hayotga singishi jarayonida davlatimizda yangi davrga hos jarayonlar namoyon bo'la boshladi; birinchidan, hududimizdan ruslarning va umumiy yevropaliklarning ko'chib ketishi jiddiy kamaydi. Albatta, ularning ma'lum qismi sekin-asta borish joylarini aniqlab, ko'chib ketmoqdalar. Bu jarayonni to'htatish mumkin emas, chunki odamlarning jahon bo'ylab o'zlariga qulay joy izlab ko'chib ketish yoki ko'chib kelishga xaqлари bor. Bu – demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biridir. Ikkinchidan, ayni vaqtda O'zbekistonga ko'chib keluvchilarning soni ko'chib ketayotganlardan kam emas. Ana shu sababli ko'chib yurish tarozisining pallalari barovar teng, desak bo'ladi. Uchinchidan, MDH miqyosidagi vaziyatni qiyosiy o'rganib, boshqa davlatlardan, ayniqsa Rossiya federatsiyasidan ruslar bilan bir qatorda boshqa millat vakillari ham

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Тошкент: Ma'naviyat, 2008. –Б. 4 .

ko‘chib kelmoqdalar. Inson uchun ma‘naviy barkamollikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Chunki u avvalo, o‘zining kimligini bilib olsa, qaysi millatga mansubligini tushunib yetsa, avlod-ajdodalari, ular qoldirgan moddiy va ma‘naviy merosni o‘zlashtirsagana to‘laqonli shaxs darajasiga yetishi mumkin. Bunday shaxslar millatning aksariyat ko‘pchilik qismini tashkil qilsagina bunday millatning istiqboli buyuk bo‘ladi. Shuning bilan birga o‘zini-o‘zi chuqur anglab yetgan, ko‘zi ochilgan, aqli raso, g‘oyaviy-siyosiy jihatdan uyg‘ongan va jipslashgan xalq va millatni, o‘tmishda bo‘lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini paymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas. Inson ma‘naviy olamining yuksalishi bilan bog‘liq turli holatlar haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin, muxtasar qilib aytganda, Ollohning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma‘no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash - odamzotning ma‘naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi. O‘ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o‘z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma‘naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir.¹ Ma‘naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba‘zida achchiq, ba‘zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne‘mat va go‘zalliklaridan baxramand bo‘lish ma‘naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.² O‘z-o‘zini anglash bu xalqning, millatning o‘tmish tarixiy taraqqiyot yo‘lini, otabobolari, nasl-nasabi, avlodu-ajdodlarining kim bo‘lganligi va ularning jahon ilmfani va madaniyati

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. –Тошкент: Ma‘naviyat, 2008. –Б. 25.

² Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. –Тошкент: Ma‘naviyat, 2008. –Б.28.

taraqqiyotiga ko'shgan buyuk hissalarini bilib olishdir. Millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch g'ayratini ishga solish demakdir. Millat mavjud bo'lishi uchun til, hudud va ma'naviyat asosiy shart bo'lgani kabi milliy o'zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi. O'zlikni anglash o'z mohiyatiga ko'ra millat va elatlar uchun xos bo'lgan ma'naviyat xususiyatlarini ifoda etib, o'z funksiyasiga ko'ra milliy manfaatlarni himoya qiladi. Shunday qilib, har bir millat va elatning uzini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an'analar, kadriyatlarga mansubligini manfaatlar va extiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy uzlikni anglash, deb ataladi. Milliy o'zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining, shaxs, mahalliychilik manfaatlaridan ustun turishini anglash darajasi bilan bog'likdir. Millat sha'ni, qadri-qimmat, obro'-e'tibori poymol etilganda yoki millatning manfaatlariga nisbatan ikkinchi bir tomondan zo'ravonlik harakatlari boshlanib ketgan holatlarda yanada kuchli va yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, qaysi darajada boy yoki kambag'al bo'lishidan qati nazar o'zaro birlashib ketadilar va millatning manfaatlarini himoya qiladilar. Millatning tili, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, hudud yagonaligi, ma'naviyatdagi o'ziga xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustakil belgisi xisoblanadi.¹ Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada kjsaltirishga xizmat qiladi.² Albatta, qar qaysi xalq yoki millatning ma'-naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat

¹ Otamuratov. S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. –Тошкент, 2000, -Б. 93 .

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Тошкент: Ma'naviyat, 2008. –Б. 48.

va anʼanalari, haetiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib boʻlmaydi. Bu borada, tabiiyki, maʼnaviy meros, madaniy boyliklar, koʻhna ta-rixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri boʻlib xizmat qiladi.¹ Siyosiy maʼnaviyati, milliy ongi rivojlangan, milliy jihatdan oʻzini-oʻzi anglab yetgan xatto, millat mustaqillikning buyuk kuchiga aylanadi. Millatning, xalqning kuch qudrati uning soni bilan oʻlchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongning oʻsganligi, milliy gʻururi, milliy hissiyoti, milliy tuygʻuning qay darajadaligi, oʻz-oʻzini anglab yetganligi, milliy uyushganliga bilan belgilanadi. Oʻzligini anglagan millatni harbiy ustunlik bilan vaqtincha qaram qilish mumkin, ammo, uni batamom qaram qilib boʻlmaydi. Undagi milliy gʻurur har qanday sharoitda ham ozodlikka chiqishi uchun kurash olib borishga olib keladi. Shunday qilib, milliy oʻzlikni anglash millatning eng muhim belgisi, uning rivojlanishi va kelajagini taʼminlovchi omili hisoblanadi.² Mustaqillikka erishishimiz bilan bunday holatlarga Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida barham berildi. Maʼlumki, oʻzbek xalqi azaldan oʻzining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qoʻyish, ularning qornini toʻq, ustini but qilish oʻz yoʻli bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chogʻidan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak maʼnaviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.³ Mustaqillikning dastlabki bosqichlarida milliy oʻzlikni anglashning xarakterli xususiyati shunda boʻldiki, milliy qadriyatlardan koʻra diniy qadriyatlarni koʻtarish ustuvorlikni tashkil qildi. Buning obʼyektiv sababi bor edi. Xususan, oʻzbek xalqi maʼnaviyati va maʼrifati rivojlanishining shoʻrolar tuzumi oʻrnatilgungacha boʻlgan davri islom maʼnaviyat va maʼrifati bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, u millatimiz ongi va ruhiyatining muhim qismini tashkil qilib kelgan. Xuddi shuning uchun ham bolsheviklar islomga qarshi kurash yoʻli bilan millatni ham yoʻq qilish mumkin, deb xisoblaganlar va shu siyosatni izchillik bilan amalga oshirishga

¹ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – engilmas kuch. –Тошкент: Maʼnaviyat, 2008. –Б.30.

² Otamuratov. S., Ramatov J., Xusanov S. Maʼnaviyat asoslari. –Тошкент, 2000, -Б. 94.

³ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – engilmas kuch. –Тошкент: Maʼnaviyat, 2008. –Б.55.

intilganlar. Ularning bu harakatlari bejiz emas edi. Chunki Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Tarixdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi». Mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin tarixiy xotirani va diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishining, o'zlikni anglashning muhim omili sifatida ustuvor bo'lib keldi. U milliy birlikni mustahkamlashda va milliy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishda amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda millatlararo va fuqarolararo nizolarning bo'lmaganligi, ularning oldi olinganligi o'zbek millati uchun vazminlik, bag'rikenglik va boshqa millat vakillariga nisbatan hurmat kabilar xos bo'lgan xususiyatlardan sanaladi. Aslida, 1990 yillarda sobiq SSSR tizimida bo'lgan sobiq ittifoqdosh Respublikalarda bo'lgani kabi parokandalik, taraqqiyot yo'lining noaniqligi O'zbekistonda ham bo'lgan edi. Ammo, o'zbek xalqining o'ziga xos teran aql-zakovati, bosiqlik, vazminlik xususiyatlari, uning rahbari Islom Karimovning vaziyatni to'g'ri anglab, shunga mos ravishda siyosat olib borishi parokandalik yo'lga to'siq qo'ydi. O'zbeklar o'z atrofida yashayotgan boshqa millat va elat vakillariga nisbatan do'stlik, birodarlik, hamkorlik, o'zbek xalqiga xos mehr-oqibat tuyg'ularini saqlab qola olganligi milliy o'zlikni anglashdagi yana bir xususiyat hisoblanadi. Vaholanki, mustaqillikka erishgan ayrim Respublikalarda mustaqillik sharofati oldida dovdirab, o'z atroflarida yashayotgan, yaqindagina qardoshimiz deb yurgan millat vakillariga hurmatsizlik bilan qarash yuz berganligi sir emas.¹ O'zbekistonda bunday hol yuz bermaganligi, xalqimizning yuksak ma'naviyatini ko'rsatadi. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasida ta'kidlaganidek, «millatlararo hamjihatlikka rahna soluvchi illat bu -tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat halokatga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

¹ 1 Otamuratov. S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. –Тошкент, 2000, -Б. 96 .

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi». Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: «Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug'imiz - bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir».¹ Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liqtasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekani-ni isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rga-nish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyo-lilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman. Nsga deganda, o'zimiz - bugun shu yurtda yashayot-gan vatanparvar insonlar bu vazifani o'z zim-mamizga olmasak, chetdan kelibhech kim hech qachon bu ishni qilib bermaydi². Mustaqil O'zbekistonning yuksalishi, o'zbek millati gullab-yashnashining tarafdori bo'lgan har bir O'zbekistonlik fuqaro millatlararo totuvlik, do'stlik qoidalariga sodiq bo'lishi kerak. Chunki, mustaqil davlatimizning kelajagi birinchi navbatda, o'zbek xalqining milliy o'zligini qanchalik anglab yetganligiga hamda mamlakatimiz hududida o'zbeklar va boshqa millat, xalq vakillari bilan yonma-yon istiqomat qilib turgan har bir kishining millati, dini, tili va e'tiqodlaridan qati nazar, bir-birining ko'nglini ola bilishiga, ular o'rtasida do'stona munosabatlarning o'rnatilishiga bog'liq. Hozir O'zbekistonda 136 millat va elat vakillari tanch, farovon hayot kechirmoqda. Ular o'zbeklar bilan bir qatorda bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanmoqdalar. Mamlakatimizda har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.–Б. 9.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Тошкент, Ma'naviyat , 2008. –Б. 44.

va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy vatan bilan aloqa va munosabatlarni bog'lashga, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochib berilgan. Bu esa mamlakatimiz barqaror rivojlanishining kafolatidir. Xullas, milliy o'zlikni anglashni o'stirish yo'lida mustaqillikni mustahkamlashga fidoyi bo'la oladigan, Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, «Biz fidoyi vatanparvarlarni tarbiyalashimiz», «Elim deb, yurtim deb yashovchi, shu yo'lda hatto jonini ham ayamaydigan», «O'zidan so'ng ozod va obod Vatan qoldiradigan» farzandlarni tarbiyalashimiz zamon va mustaqillik talabi». Bunga yurtimizda yashayotgan har bir kishi millatidan qati nazar mas'ul bo'lmog'i lozim. Yoshlarimiz tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqadsas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning, men o'zbek farzandiman, deb, g'urur va iftixor bilan yashashiga erishish ma'naviy tarbiya ishimizning markazida turmog'i lozim.¹

Milliy mustaqillikka erishgan mamlakatimiz xalqi porloq istiqbol sari dadil odimlamoqda. Bu odimlar xayrli bo'lishi bilan birga ma'suliyatli hamdir. Milliy istiqbol tufayli o'zbek xalqi o'z tiliga, o'z diniga, o'zligini anglashga tarixini holis o'rganishga, milliy va madaniy merosi, qadriyatlarini qayta tiklash ham imkoniyatlariga ega bo'ldi. Bu – milliy ma'naviyatning boyishida va yuksalishida muhim ijtimoiy – siyosiy omil bo'lib hizmat qilmoqda.¹ Bizning har birimiz buyuk tariximiz, buyuk ma'naviy merosimiz, ayni chog'da jahon ma'naviy tamadduniga ulkan hissa qo'shgan bir-biridan ulug' mutafakkir olimufuzalolarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz va ularga munosib bo'lishni o'zimizning muqaddas burchimiz, deb bilamiz. Tabiiyki, har qanday daraxtning qanday gullashi va qanday meva berishi uning ildizlari tutashgan tuproqqa bog'liq. Bo'sh joyda hech narsa unmaydi. Ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotda ham ulkan g'alabalarga erishmoq uchun katta madaniy an'ana va katta madaniy meros kerak. Shukrlar bo'lsinki, bizning madaniy merosimiz va ma'naviy boyligimiz tarixi eng qadimgi davrlarga borib tutashadi. Bu bebaho

¹ Orinboev A. Ma'naviyat – millatning kuch – qudrati . -Тошкент, 2006, -Б. .64.

boyliklarimiz, jumladan, muqaddas anʼanalarimiz va qadriyatlarimiz ana shu davrlardan beri katta hayot sinovlaridan omon–eson oʻtib, tobora sayqallanib, takomillashib kelmoqda. Milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targʻib qilish va ommalashtirish oʻsib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarimizni maʼnaviy tarbiyalashning asosi boʻlmogʻi lozim. Men madaniyat va maʼrifat dunyoni jaholat va vahshiylikdan, diniy va milliy ekstremizmdan, etnik qarama-qarshilik, mintaqaviy mojaro va urushlardan saqlay olishiga ishonaman. Butun dunyoga mashhur rus yozuvchisi Dostoevskiyning —dunyoni goʻzallik qutqaradi», degan mashhur iborasini bir oz oʻzgartirib, —Kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va maʼnaviyat qutqaradi», deb aytgan boʻlardim. —Shuni unutmaslik kerakki, - deydi Prezidentimiz I.Karimov, bu masalaga alohida eʼtibor qaratib, - bugungi kunda inson maʼnaviyatiga qarshi yoʻnaltirilgan, bir qarashda arziyas boʻlib tuyuladigan kichkina xa-bar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, koʻzga koʻrinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab boʻlmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz sakdashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz maʼnaviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizni oʻylantirishi tabiiy.¹ Shuni alohida gʻurur va iftixor bilan taʼkidlash mumkinki, azaldan xalqimizga ziynat boʻlib kelgan oliyjanoblik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehmondoʻstlik, oʻzaro ahillik va hamjihatlik, millatlararo totuvlik va bagʻrikenglik kabi goʻzal maʼnaviy fazilatlar ona Vatanga, elu yurtga nisbatan muhabbat va sadoqat tuygʻulari bugungi kunga kelib elimizning jahon xalqlari oʻrtasidagi qadr-qimmatini va obroʻ- eʼtiborini yanada oshirib, dunyo ahlining mustaqil davlatimizga, bunyodkor xalqimizga va ana shunday buyuk xalqning farzandi boʻlmish muhtaram Prezidentimizga boʻlgan ishonch va

¹ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat - engilmas kuch. —Тошкент: Maʼnaviyat, 2008. —Б. 115.

ehtiromi tobora ortib borishiga asos bo'lmoqda O'zbekiston xalqining inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini nomoyon qilib, insonparvar demokratik, huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, Respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash maqsadida qabul qilingan Asosiy Qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyamiz ham ana shu bebaho qadriyatlarimizga asoslangandir. Hatto ko'p millatli Respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimiz hayoti, ularning turmush tarzi, xulq-atvori va dunyoqarashida ham ana shu qadriyatlarimiz va xalqimizga xos bo'lgan yuksak ma'naviy fazilatlarining ijobiy ta'siri o'zining yorqin ifodasini topganki, bu omil Vatanimizning tinchligini, turmushimizning farovonligini va taraqqiyot yo'limizning sobitligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, millati, dini, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha yurtdoshlarimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchi, bugungi kundagi hayoti va taqdiridan mamnunligi ularning milliy g'oyamiz atrofida mustahkam birlashib, ya'ni bir yoqadan bosh chiqarib, "O'zbekiston – umumiy uyimiz", "Shu aziz Vatan barchamizniki", "Qudratimiz-birlik va hamjihatlikda", "Maqsad bir, g'oya bir, Vatan yagona ", "Vatan yagonadir – Vatan bittadir" g'oyalarining asl mohiyatini chuqur anglab yetgan holda shu muqaddas Vatanimizning buyuk kelajagini qurish va uning mustaqilligini yanada mustahkamlash yo'lida fidoyilik bilan sidqidildan qilayotgan mehnat faoliyatlarida, turli sohalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlarida yorqin namoyon bo'lmoqda¹. Konstitutsiyamiz orqali kafolatlangan teng huquq va keng imkoniyatlar esa ularning kuchiga kuch, quvvatiga quvvat qo'shib, yangidan yangi zafarlar sari ilhomlantirmoqda. Bir vaqtlar o'zimizning o'zbeklar ham o'z tilida so'zlashishga uyalgan, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishini orzu qilib, bu haqda o'z

¹ www.ziynet.uz

kitoblarida oshkora fikr yuritgan olimlar esa millatchi sifatida qoralanib, qattiq tazyiq ostida hayot kechirishga majbur qilingan bo'lsalar, endilikda mustaqillik sharofati bilan davlat tilimizning mavqei faqat qog'ozdagina emas, balki amalda ham yuksaklarga ko'tarilmoqda. Shunisi quvonchliki, bugungi kunga kelib tilimizga "Davlat tili" maqomi berilgan (1989 yil 21 oktabr) kunni biz o'zbeklar bilan bab-barobar turli millatga mansub yurtdoshlarimiz ham katta bayram sifatida nishonlamoqdalar. Zotan, ular davlat tilimizni umumiy xonadonimiz bo'lgan O'zbekiston mustaqilligining, ya'ni Vatanimizda istiqomat qilib turgan barcha millat vakillariga teng huquqlilikni kafolatlab, ularning tili, madaniyati, urf-odat va an'analarining rivojlanishi uchun keng sharoit va imkoniyatlar yo'lini ochib bergan sharaflı istiqlolimizning muhim belgilaridan, ramzlaridan biri ekanligini chuqur anglab yetmoqdalar. Bu esa, avvalo ko'p millatli xalqimiz ruhiyatida, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda ma'naviy tahdidlarga keskin zarba bera oladigan muqaddas tuyg'ularning ustuvorligidan dalolatdir. Ayni chog'da, bu omillar yoshlarimizni millatlararo totuvlik va fuqarolar hamjihatligi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2008 yil, ya'ni "Yoshlar yili" munosabati bilan Respublikamizning qator viloyatlarida va Toshkent shahridagi yetakchi oliy o'quv yurtlarining talabalari ishtirokida o'tkazilgan "Maqsad bir, g'oya bir, Vatan yagona" mavzuidagi ilmiy-amaliy seminarlarimiz bizning yuqoridagi mulohazalarimizni yana bir bor tasdiqladi. Bu seminarlarda rus, ukrain, yahudiy, gruzin, koreys, nemis va boshqa qator millatlarga mansub bo'lgan talaba yoshlarimiz so'zga chiqib, sof o'zbek tilida o'z fikr va mulohazalarini bayon qildilar. Qalblari Vatanimizga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan bu yoshlar bugungi kunda davlat tilini o'rganish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanini ta'kidlab o'tdilar. Ularning deyarli har biri "Tilga e'tibor – elga e'tibor", degan o'zbek xalq maqolini keltirib, o'zbek tilini bilish, biz kabi turli millat vakillarini o'z bag'riga olgan bag'rikeng o'zbek xalqiga, erkin, demokratik, huquqiy davlat qurilishi yo'lidan dadil ilgarilab

borayotgan mustaqil davlatimiz va jonajon Vatanimizga bo'lgan e'tibor va ehtiromning yorqin ifodasi, deya barcha tengdoshlarini bu tilni sevib o'rganishga da'vat etdilar. Yoshlarimiz davlat tilini bilishning ahamiyatini chuqur anglab yetgan holda bu narsa o'zi yashab turgan yurtning buyuk tarixini, jahonshumul madaniyatini va ayniqsa, uning o'ziga xos qirralarini o'rganishda keng imkoniyatlar eshigini ochib beruvchi bebaho omil sifatida baholayotgani biz uchun g'oyat quvonchlidir. Milliy-madaniy markazlarimiz faoliyati bilan yaqindan tanishishga, shuningdek, turli millatga mansub yurtdoshlarimizning yurak so'zlarini tinglab, ularning samimiy suhbatlarini olishga harakat qilamiz. Bo'lib o'tgan barcha uchrashuvlarda har bitta tadbir qatnashchisining shukronalik to'la dil so'zlari, faqatgina ezgulikka yo'g'rilgan ulug' maqsadlaridan, umumiy xonadonimiz – aziz O'zbekistonimiz tinchligi, yurtimiz obodligi, turmushimiz farovonligi yo'lida amalga oshirayotgan xayrli ishlaridan quvonchlarga to'lib qaytamiz. O'rta Osiyo hududida aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari - daryo va anhorlar bo'yida yashab keladi. Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiati, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintaqa sharoitining o'zi ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqozo etib keladi. Shuning uchun ham xursandchilik kunlarida ham, to'y-u ma'rakalarida ham bir-birlariga hamkoru hamdast bo'lib yashash ko'p millatli xalqimizning tabiiy ravishda kundalik turmush tarziga aylangan. Ularning barchasi qo'ni-qo'shnichilik, mahalla-ko'ychilik udumlariga rioya qilgan holda bir-birlariga o'z dasturxonlaridan nasiba ulashadilar, betoblar va yolg'iz qariyalarning holidan xabar oladilar, birovning boshiga ish tushsa boshqalari unga qayg'udoshlik va hamdardlik qilib ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga shoshiladilar. Xalqimiz orasidagi o'zaro ahillik, ayniqsa, bayramlarda, yurtimizda nishonlanadigan tantanali marosimlar va xalq sayllarida o'zining butun bir jozibasi bilan namoyon bo'ladi, bunday kunlarda ular turli liboslar, turli tillar va turli ohanglarda o'zlarining shukronalik tuyg'ularini, shu

muqaddas zaminga, ona O'zbekistonimizga chuqur mehru muhabbatlarini o'zlarining kuy va qo'shiqlari bilan ifoda etadilar. Shunday paytlarda yurtdoshlarimiz jannatmonand O'zbekistonimizning xaqiqiy tinchlik, do'stlik, bag'rikenglik, birlik va hamjihatlik mamlakati ekanligini yana bir bor namoyish etadilar. Bayram kunlarida shodu xurramlik bilan turli millat vakillari ishtirokidagi o'tayotgan shodiyonalar o'lkamizning barcha hududlarini qamrab oladi. Ana shunday lahzalarda Vatanimiz O'zbekiston haqiqiy do'stlik chamanzori sifatida har qanday kuzatuvchining hayratiyu havasini keltiradi. Vatanimizda juda katta tantanalar bilan umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadigan "Mustaqillik" va "Navro'z" bayramlari, 8 dekabr – Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun, 8 mart – Xotin-qizlar kuni, 9 may – Xotira va qadrlash kuni shular jumlasidandir. Tabiiyki, qaysi davrda bo'lmasin, har qanday yovuz kuchlarga, bosqinchilarga qarshi kurash, bu nainki bir millat yoki din vakillari manfaatiga, balki millati, irqi va dinidan qat'i nazar, butun insoniyat manfaatlariga xizmat qiladi. Bu fikr hozirgi globallashuv davri uchun ayniqsa muhimdir. Bu jihatdan "Xotira va qadrlash kuni"ning mamlakatimizda barcha millat vakillari tomonidan keng nishonlanishi o'zining chuqur ma'no va mazmuniga egadir. Mazkur bayram kunida ayniqsa Ikkinchi jahon urushida Vatanimiz O'zbekiston uchun, ona xalqimiz, jonajon yurtimiz va aziz tuprog'imiz uchun jon taslim qilganlarning xotiralari takrortakror yodga olinib, ularning xaqlariga duo-yu fotihalar qilinadi. Hozirda uylarimizni fayzga to'ldirib, barcha ishlarimizga boshu-qosh bo'lib, qatorimizda yurgan urush va mehnat faxriylariga esa cheksiz ehtiromlar ko'rsatilib, ularning fidokorona mehnatlari, qahramonona hayotlari biz uchun katta saboq maktabi sifatida hamisha yuksak qadr-qimmatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham bu xotira va qadrlash marosimlarida barcha milliy-madaniy markazlar faol ishtirok etadilar. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va real hayotiy misollar shuni yana bir bor shuni tasdiqlaydiki, respublikamizning barcha hududlarida turfa millat vakillari o'zaro hamjixatliqda, bir-birlariga faqat va faqat yaxshiliklar tilab, ezgulik va

yaratuvchilik ishq bilan tinch-totuv hayot kechirayotganliklari, muhtaram yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, mustaqil davlatimizning bugungi kundagi erishgan eng katta yutug'i, qo'lga kiritgan eng katta boyligidir. Ha, har qanday dushmanni dog'da qoldirib, har qanday g'ovlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan qudratli kuch ham aynan mana shu ahillik va hamjihatlikda mujassamlashgandir. Bu esa xalqimizga xos bo'lgan yuksak ma'naviyatning muhim bir belgisidir. Mustaqillik ayni paytda ma'naviyatning ajralmas qismi bo'lgan milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o'z – o'zligini anglash, milliy his tuyg'ular, gururni va vatanparvarlikni o'stirish va mustahkamlashga ham yo'l ochganini takidlash zarur. Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti jamiyat a'zolarining, har bir shaxs va ayniqsa, yoshlarning ma'naviy komoloti, go'yalarining kishilar ongiga, kundalik hayotiga chuqurroq kirib borishiga bog'liq.¹ Ma'lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'lishini hammamiz yaxshi bilamiz.² Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.³ Prezidentimiz I.A. Karimov 9-may kuni Poytaxtimizdagi tabarruk maskanlardan biri – xotira maydonida so'zlagan nutqida ikkinchi jahon urushida jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Bugun mamlakatimizda buyuk tarixiy sana, ya'ni ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozonilgan kunning 67 yilligi nishonlanmoqda, - deydi Islom Karimov. Bugun safarimizda eson – omon, bardam bo'lib, barchamizga ma'naviy madad berib, ibrat bo'layotgan urush

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izoxli tajribaviy lug'at). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. –B. 73.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 7..

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 12.

qatnashchilarini chin qalbimdan tabriklash, ularga uzoq umr tilab, o‘zimni samimiy hurmatimni bildirish menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi, dedi davlatimiz rahbari. Ma‘naviyat tarbiyaning eng ta‘sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo‘ylik, haqsevarlikka o‘rgatish kerak bo‘ladi. Aslini olganda, axloq-ma‘naviyatning o‘zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq – bu avvalo, insof va adolat tuyg‘usi, imon, halollik degani.¹ Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo‘ladi. Vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o‘zini ayamaydi . Ko‘hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o‘z-o‘zini idora etishga, yaxshi xislatlarini ko‘paytirib, yomonlaridan xalos bo‘lishga chorlagan . Kelajakda O‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma‘naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim. Ma‘lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta‘bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur . Ma‘naviyat, mafkura borasida chetdan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirib, biron natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki bizning dunyoqarashimiz, xalqimizning tafakkuri, turmush tarzi nihoyatda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi .

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonng siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. III jild,. -Тошкент: Ўзбекистон, -Б. 42.

2.2. O'zbekiston respublikasining millatlararo munosabatlarning shakllanishiga doir hamkorlikdagi madaniy faoliyati

O'zbekiston istiqlol yillarida mustaqil suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. U o'zining katta ishlab chiqarish imkoniyatlari, boy aqliy va jismoniy salohiyati, tengsiz tabiiy boyliklari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari diqqatini tortdi va ular bilan tengma-teng turib hamkorlik qilish qudratiga ega ekanligini ko'rsata oldi. O'zbekiston hukumatining isloxotchilik siyosati bevosita xalq dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlarini, an'analari bilan uygun holda amalga oshirila boshlandi. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni xar kun qilish kerak», «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, dono va albatga baxtli bo'lishi kerak» singari shiorlar xalqimizning orzu-istash, umid va intilishlari bilan uyg'un holda dunyoga keldi. Bugungi kunda O'zbekistonning tom ma'noda ma'naviy tiklanish va ruxiy poklanish maydoniga aylanganligi ana shu eng ezgu niyatlar asosida davlat siyosati va xalq orzu umidlarining uyg'unligi natijasidir.

«Mustaqil o'zbek davlati xalqimizning tarixiy yutug'idir. Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam mustaqillikni qo'lga kiritib, gullab-yashnashi va farovonlikka erishishi, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o'rinni egallashi biz ko'zlayotgan oliy maqsad dir»-degan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov¹ XXI asr bo'sag'asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va insoniyat, odam va odam taqdiriga daxldorlik xissi tobora kuchaydi. XX asrning so'nggi o'n yilligi har qanday zo'ravonliklar, tazyiqlar va g'oyaviy xurujlarni aql-idrok va ochiqdan-ochiq munosabatlar orqali hal etish sari dadil qo'yilgan davr bo'ldi. O'zbekiston yosh mustaqildavlat sifatida o'z mavqei va nufuzini mustahkamlash bilan birga dunyo

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –Toshkent: O'zbekiston, 1996. –B. 49.

ahlini jahon siyosatini isloh qilishga da'vat etgan davlatlardan biri bo'lib maydonga chiqdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yutug'lardan muhimi uning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olganligidir. 1991 yil 31 avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi bayonot»da O'zbekistonning tashqi siyosatidagi yo'li aniq qilib belgilangan edi. Jumladan, unda! «Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat. xalqaro huquq sub'ekti sifatida qatnashadi, uning maqsad lari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z hududini qurol-yaroqlardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo'l qo'ymaslikdan iborat»-deb aytilgan edi¹.

O'zbekiston xalqaro hamjamiyatga a'zo bo'lgan qisqa fursat ichida uning eng nufuzli teng huquqli a'zolaridan biriga aylandi. hozirgi dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshilik sari burib turishda insoniyat ravnaqi va hayotining daxlsizligini, qolaversa, butun yer shari muvozanatini saqlab turishda O'zbekistonning hozirgi siyosiy mavqei katta strategik ahamiyatga egadir.

O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishuvi o'zbek xalqining asriy orzu-maqsad larini to'la ma'noda ro'yebga chiqarish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Mamlakatimiz rahbariyati istiqlolning ilk daqiqalardan e'tiboran o'zining dastlabki rasmiy hujjatlarida demokratik tamoyillarga sodiq ekanligini, erkin adolatli, demokratik, huquqiy davlat fuqarolik jamiyati barpo etishga qat'iy qaror qilganligini butun dunyoga e'lon qildi.

Bu esa o'z navbatida jahon siyosiy xaritasida yangidan paydo bo'lgan mustaqil demokratik davlatni ko'plab dunyo mamlakatlari tomonidan tan olinishi va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatilishi xamda boshqa turli-tuman sohalarda, hamkorlik

¹ O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. –Toshkent: O'zbekiston, 1992. –B. 8.

munosabatlari boshlanishini tayin etdi Ayniqsa AQSh, Xitoy. Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Italiya, Turkiya singari jahonning rivojlangan yetakchi davlaglarining birinchilar qatorida O'zbekiston mustaqilligini tan olib, u bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini izhor etishi-bu katta ruhiy madad bo'ldi. Shu tariqa O'zbekistonning porloq istiqbol sari yo'nalgan yangi tarixining yangi solnomasi ochildi¹.

O'zbekiston mustaqilligining birinchilardan bo'lib e'tirof etgan va diplomatik munosabatlar o'rnatgan davlatlardan biri Amerika qo'shma Shtatlaridir. Davlatlararo aloqalar rivojlanish jarayonida AQSh va O'zbekiston o'rtasidagi turli sohalarda sifat jixatdan yangi, uzoq mudatli va o'zaro foydali, xalqaro huquqning me'yorlariga asoslangan munosabatlar tamoyillari shakllandi. Mustaqillik yillarida ikki mamlakatning yuqori lavozimli diplomatlari, harbiylari, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar muammolar bo'yicha ekspertlari, olimlar va madaniyat arboblari O'zbekiston-Amerika qo'shma Shtatlari o'rtasidagi o'zaro maslaxatlashuv ishlarini faol yo'lga qo'ymoqdalar. Bu borada «O'zbekiston-AQSh» qo'shma komissiyasi ikki tomonlama hamkorlikni ko'mlab muxim masalalarini shakllantirishda ijobiy ro'l o'ynadi. O'zbekiston-AQSh o'rtasida dastlabki aloqalar 1992-yil 15-fevralda AQSh davlat kotibi Jeyms Beykerning O'zbekistonga rasmiy tashrifi bilan boshlandi. Toshkentda 1992-yil 16-mart kuni Mustaqil O'zbekistondagi dastlabki xorijiy davlat elchixonasi AQSh elchixonasi ochildi. O'zbekistonda AQSh elchixonasining ochilishi katta ahamiyatga ega bulib, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik shu mamlakatlar xalqlar farovonligi yo'lida xizmat qildi². 1992-yil 25-iyun kuni O'zbekistonning AQShdagi elchixonasi ochildi. O'zbekiston raxbari I.Karimov AQShga birinchi bor 1993-yil oktyabrda tashrif buyurdi. Prezident I.Karimov AQSh hukumati raxbarlari va ishbilarmon doiralari vakillari bilan Nyu-York shaxrida uchrashdi, shu tariqa ikki

¹ O'zbekiston umumiy uyimiz. –Toshkent: Sharq, 1999. –B. 8.

² Murodov X., Muhammadaliyev N., Jamolov G. O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. –Toshkent:G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. –B. 78.

mamlakat o'rtasidagi xar tomonlama aloqalar urnatishga va rivojlantirishga poydevor qo'yildi. O'zbekiston AQShning ta'lim sohasidagi AKSeLS, Ayreks, «Tinchlik korpusi», «Ochiq jamiyat instituti hamkorlik fondi» kabi ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilmoqda. Aksels (AQShning xalqaro ta'lim bo'yicha kengashi tashkiloti Respublika-mizda o'z faoliyatini 1992-yilda boshlagan. Shundan buyon AQSh oliy o'quv yurtlariga O'zbekistondan talabalar aspirantlar o'qituvchilar xamda ilmiy tadqiqotchilarni muntazam yo'llab turilibdi. Bu tashkilot 250 dan ziyod talaba aspirantlarimizga o'qish va ilmiy tadqiqotlaripi AQShda davom ettirishlari uchun imkoniyat yaratib berdi. Aksels O'zbekistonda ta'lim sohasidagi bir necha boshqa dasturlarni xam amalga oshirmoqda. Shulardan biri MASKI (AQSh Universitetlaridagi magistratura ta'limiga xorijiy talabalarii jalb etish) dasturidir. Ta'lim sohasini rivojlantirish uchun «Flag», «Ipternet visitor» «Komminitiy konnektion», «English language Fellovs» dasturlariga 2 mln 400 ming AQSh dollari miqdorida moliyaviy yordam belgilandi. Bundan tashqari mintaqaviy tadqiqotlar almanish dasturi, ingliz tili amerikashunoslik bo'yicha uqituvchi kadrlar tayyorlash ta'limga sheriklik va boshqa yunalishlardagi dasturlar bo'yicha ham ish olib borilmoqda.

Ayreks sa'yi-harakatlari bilan O'zbekiston Respublikasining bir guruh olimlari AQSh universitetlarida va ilmiy laboratoriyalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Tinchlik korpusi tashkilotining Toshkentdagi vakolatxonasi bilan xam hamkorlik qilmoqda. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ingliz tili marketing biznesni rivojlantirish va boshqa sohalarda o'qituvchilik qilishni xoxlovchi AQSHlik ko'ngillilar ana shu tashkilot vositachiligida yo'llanma bilan ta'minlanadi.

O'zbek-Amerika do'stlik jamiyati 1999-yilda tashkil topgan. Hozirgi kunda O'zbekiston oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi O'zbekiston-Amerika do'stlik jamiyati ishida faol ishtirok etmoqda. Bir necha yillardan beri O'zbekistonning bir

qator Universitetlari AQShning yirik ta'lim markazlari bilan muntazam hamkorlik qilib kelmoqda. Shu kungacha imzolangan shartnomalarga binoan, O'zbekiston Universitetlarining 8 nafar rektori Garvard universiteti xayoti va foliyati bilan bir hafta davomida atroflicha tanishib qaytdilar. Oliy o'quv yurtlarining 10 nafar professor o'qituvchilari Sietl universitetida, 15 nafar o'qituvchisi esa Kolumbiya okrugidagi Amerika universitetida malaka oshirishda bo'ldilar. Respublikamiz oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi Amerikaning Merilend shtati Merilend universiteti bilan 1995 yildan buyon hamkorlik qilib keladi. Merilend universiteti bilan Toshkent agrar universiteti bilan birgalikda O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va yo'riqchilik xizmatini tashkil etish bo'yicha AQSh Davlat Departamentining 250 ming dollari miqdoridagi grantini qo'lga kiritdi.

AQShning «SAGe» (Markaziy Osiyoga beg'araz yordam) tashkiloti ingliz tilini, kompyuter texnikasini o'rgatish, yoshlarimizga zamonaviy bilimlarni egallashda ko'maklashish maqsadida 1995-yildan buyon o'zining ko'rsatib kelmoqda. Yusayd, yo'nalishlari bo'yicha hamda Amerikaining hukumat jamg'armalari orqali O'zbekiston talabalari, o'qituvchi va olimlari uchun grantlari yildan-yilga oshirib borish ko'zda tutilmoqda. 1997-yili Prezident I.Karimov tashabbusi bilan iqtidorli yoshlarning chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlovchi «Umid» jamg'armasi tuzildi¹. O'tgan davr mobaynida 785 nafar yigit-qizlar «Umid» grantlariga sazovor bulib, rivojlangan xorijiy mamlakatlarniig nufuzli oliy o'quv yurtlariga yuborildi. «Umid» grantlari orqali 343 nafar yigit-qiz AQShda taxsil oldi. AQShning «Tinchlik korpusi» tashkilotidan yuzga yaqin ko'ngillilar respublika maktablarida o'quv chilarga ingliz tilini o'rgatishda beg'araz yordamlarini bermoqdalar.

1999-yilda O'zbekiston Milliy Universiteti doktoranti D.Azizov Texas Universitetining bir yillik muddat bilan ilmiy malaka oshirish uchun safarbar qilindi. O'ta tejamli kosmik apparatlar yaratish mavzusidagi «Grase» loyihalarida yer-Mars-

¹ Жўраев Н, Файзуллаев Т. О'zbekistonnig yangi tarixi. 3-kitob. –Toshkent: Sharq, 2000. –Б. 416.

yer yo'nalishdagi traektoriyalarni taxlil etish tadqiqotlarida Marsni o'zlashtirish dasturida D.Azizov to'la xu?u?li ilmiy a'zo sifatida qatnashdi. D.Azizov «Amerika Aeronavtika va Astronavtika akademiyasining haqiqiy a'ziligiga qabul qilindi».

Xalqlarni bir biriga tanishtirish va yaqinlashtirishda, ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, do'stlak aloqalarini o'rnatishda ilmu-fan, adabiyot xamda san'atning, bir so'z bilan aytganda madaniyatning axamiyati nihoyatda katta ekanligi xammaga ma'lum. AQSh va O'zbekiston ziyolilarini bir-birining tarixi va madaniyatiga qiziqish ko'p yillardan buyon davom etib kelmoqda. Masalan: 1948-yilda AQShda «Turkiy tillarda saz yasalishi», Ch.Bijerning «O'zbek gazeta tilidan qo'llanma», A.Raunning «O'zbek tilining asosiy kursi» darsliklari tayyorlandi va chop etildi. Indiana universiteti X.Ismatullaev ikki jildli 1380 saxifadan iborat «O'zbek tili darsligi»ni yaratdi. Nyu York shahridagi Kolumbiya Universiteti prfessori Eduard Ollvort «Hozirgi o'zbeklar» nomli yirik tadqiqotini 1990-yilda e'lon qildi. E.Ollvortning o'zbek adabiyotidan qilgan tarjimalari xam e'tiborga loyiqdir. Ollvort Abdurauf Fitratning «Qiyomat», «Shaytonning tangriga isyoni», kabi asarlarini inglizchaga o'girib, dunyodagi ko'plab mamlakatlar kitobxonlarining Fitrat ijodi bilan tanishtirdi.

Garvard universitetining professori Q.Pansoy O'rta Osiyo xalqlari tarixi bilan shug'ullanadi. Uning «Turkiy xalqlar tarixi», «Alpomish», «Markaziy Osiyo yangi dostonlari» kabi asarlari ko'p marotaba chop etildi. Q.Pansoy 1994-yilda Nyu-Yorkda «Markaziy Osiyo o'qish kitobi» majmuasining chop ettirdi. Beatrise Fordere Manzning Kembrij universiteti nashriyotida «Amir Temur davlati va uning parvozi» (1989 yil) nomli asari jahon Temurshunosligiga qo'shilgan salmoqli xissa bo'ldi. 1996 yilda Amur Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab Toshkentda o'tkazilgan xalqaro anjumanda amerikalik olimlar R. Nilson, J. Greys, Sh. Polonlar ham ishtirok etdilar va ma'ruza qildilar¹.

¹ Murodov X., Muhammadaliev N., Jamolov G. O'zbekiston jahon hamajamiyati safida. – Toshkent:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. –B. 98.

Madaniyatimiz, adabiyotimiz, tilimizning AQShdagi jonkuyar targ'ibotchilaridan biri haqli ravishda turkiyshunos olim, O'zbekiston milliy Universitetining faxriy doktori Ilza Laude Sirtauts xonim hisoblanadi. Uning raxbarligida har yili «Yozgi dastur» muntazam utkazilib kelinadi, bu tadbirda turli mamlakat yo'shlari ma'daiyatimiz tilimiz bilan tanishish imkoniyatiga ega bulmokdalar. Olima 1958 yilda Gamburg universitetida «Turkiy tillarda rang otlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Keyinchalik Indiana universitetida o'zbek tilidan dars bergan. Maxsus guruhlar tuzib Amerikalik yoshlarga o'zbek tilini o'rgata boshlagan u 1994 yilda 47 ta o'zbek xalk ertaklarini nemis tiliga tarjima kilib «O'zbek ertaklari» nomi bilan chop ettirgan. 1980 yilda Ilza xonim Amerika universitetlarida o'zbek tilini o'rganuvchilarga mo'ljallab yozgan o'zbek adabiy tili xrestomatiyasini nashr etildi. Bu kitobga Oybek, G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Axmad, O'lmas Umarbekov va boshqa adiblarimizni xikoyalari kiritilgan. U 1972 yilda O'zbekistonga kelganida Sietl va Toshkent shaharlarini birodarlashtirish taklifini o'rta tashlagan. Olima xozirda Sietl Toshkent birodarlashgan shaharlarinig vitse prezidentidir. Ilza xonim 1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yillik yubileyida katnashdi, nutk so'zladi. O'zbek adiblari xikoyalarini tarjima kildi va «Onamning yurti» deb atalgan majmua Sitlda «Yuniversiti Vanning Topress» nashriyotida chop ettirdi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Amerika qo'shma Shtatlari o'rtasidagi o'zaro savdo iqtisodiy aloqalar rivoji bu sohadagi hamkorlik barqaror, uzluksiz va izchil xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. AQSh Markaziy Osiyoda o'zining davomli manfaatlariga ega. U O'zbekistonga teng huquqli hamkor, ushbu xududdagi asosiy davlat sifatida karaydi. Shunday kilib, ikki tomonlama hamkorlikni istiqbollari xakida fikr yuritar ekanmiz O'zbekiston Amerika munosabatlari muvofaqqiyatli rivojlanishi uchun ko'plab tarmoq va sohalarda keng imkoniyatlar mavjud. Mustaqillik yillarida o'zaro manfaatli hamkorlik tajribasi, savdo iqtisodiy

munosabatlarni mustaxkamlash jarayonida to'plangan salohiyat xamda belgilangan istiqbolli yo'nalishlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustaxkamlashda muxim omil bo'lishi shubxasiz.

Mana, yigirma yildirki, hur O'zbekiston diyorida istiqlol shamoli esmoqda. Buning natijasi o'laroq ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida yangi qadamlar qo'yilmoqda. Bu ayniqsa, siesiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida namoyon bo'lmoqda. Salkam bir yarim asrlik siyosiy kishandbandlikdan tinch yo'l bilan ozod bo'lgan O'zbekistonimizning ovozi jahon bo'ylab baralla yangramoqda. Bu-siyosiy Mustaqillik bo'lib, ichki va tashqisiosatda hech kimning ko'rsatmalarisiz ham O'zbekistonga o'z milliy istiqlol va yangilanish yo'lidan buyuk kelajak sari borish demakdir. Bu-iqtisodiy Mustaqillik bo'lib, yurtimizning bebaho boyligi exsonlariga chinakam egalik huquqini qo'lga kiritib. O'zbek xalqi farovonligi yo'lida foydalanish demakdir. Bu-ma'naviy mustaqillik, xalqimizning istiqlolga, ozodlikka, o'z davlatiga ega bo'lishiga, adolatli jamiyat qurishga bo'lgan asriy orzu-lozimki, o'zbek xalqi siesiy va iqtisodiy qaramlikka tushgan davrlarda ham hech qachon ma'naviyat sohasida o'z mafkuraviy O'zbekistonni uning boy o'tmishini, madaniyatini, hozirgi kunini va bu yerda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayonini dunyoga tanitishdir»¹.

1991 yil 16-19 dekabr kunlari Prezident Islom Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasi Turkiya Respublikasida bo'ldi Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zol, Bosh Vazir Sulaymon Demirel va boshqa rahbarlar, ishbilarmonlar turli kompaniyalar, firmalarning rahbarlari bilan amaliy uchrashuvlar o'tkazib, fikr almashdilar Ikki mamlakat o'rtasidagi davlatlararo hamkorlikning asoslari va maqsad lari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida protokol, iqtisodiy va savdo sohalaridagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, tibbiyot, sport va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, transport va

¹ G'afforov Ya., Xolliiev A. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. –Toshkent: Universitet, 2003. –B. 10

kommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim, axborot ayirboshlash, televidenie va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa rasmiy hujjatlar imzolandi Ushbu tashrifdan keyin ikki davlat o'rtasidagi yaqinlashuv va hamkorlik rivojlanib bordi. O'zbekistonda Turkiya elchixonasi, Turkiyada O'zbekiston elchixonasi ochildi. O'zbekistonga Turkiya davlat rahbarlari Turg'ut O'zol, Sulaymon Demirel, Tansu Chiller, Mesut Ilmas va Hikmat Chetinlarning O'zbekistonga rasmiy tashriflari chog'ida imzolagan hujjatlari ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni keng quloq yeyib rivojlanishiga asos bo'ldi. Bulardan tashqari, Turkiya bilan madaniy-iqtisodiy, ilm-fan va o'tmish tarixiy aloqalarimizni rivojlantirishga xam alohida ahamiyat berildi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov Turkiyada rasmiy tashrif bilan bo'lgan chog'ida Buxoroning so'nggi amiri Sayid Olimxonning Hoziyantepada istiqomat qilayotgan bolalarini ona-Vatanlariga taklif qilgandi. Davlat rahbarimiz o'z maktublarida chet ellardagi vatandoshlarimizga O'zbekiston darvozalari ochilganligini baen etgandi. Buxoro amirining avlodlari yurtboshining maktubidagi bu bayonotdan ta'sirlanganliklarini ifodalab, «Ona yurtimizni ko'rish imkonini bergani uchun O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovga chin yurakdan tashakkurimizni bildirishni istaymiz»-dedilar¹.

1993 yilda Turkiyaning o'sha paytdagi Prezidenti Kenan Enran tomonidan qabul qilingan 50 ming afg'on qochqini orasida Buxoro amiri farzandlari xam G'oziyantepaga kelishdi. 1993 yil 20 oktyabr kuni G'oziyantepa hokimi Rajab Beyarsin Uzoq I.Karimovning maktubini amirzodalarga topshirdi. Shundan so'ng amirzodalardan Sayid Kabir Azmiy va Sayid Umar Olimpiylar Buxoroga borib ota yurtini ko'rib qaytdilar.

1993 yilda Anqaraning Turxon kitob nashriyoti yaponiyalik olimi Xisao Kumaquning «XX asr boshlarida O'rta Osiyoda turkchilik va inqilobiy harakatlar» kitobini nashr etdi. Bu asar O'rta Osiyo (Turkiston) tarixi, ijtimoiy fikri va adabiyo'ti

¹ Lafasov M. O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari. Toshkent, 1995. –B. 49.

bilan bevosita bog'liq. Unda muallif XX asr boshlarida O'rta Osiyodagi turkchilik va inqilobiy harakatlardan tashqari bevosita shu ijtimoiy islohotchilik harakatlarida Fitrat faoliyati hamda uning «Munozara»sida Buxorodagi islohotchilik g'oyalariga asos bo'lgan Eron, Misr, Usmonli turk va tatar ma'rifatchilari, matbuoti, jumladan, Turkiyadagi, «Sirot Mustaqim» jurnali, Jamoliddin Afg'oniy (1839-1897), Shaxobiddin Marjoniy (1818-1889) va boshqalarning islohotchilik an'analari, 1911-1922 yillar orasida Buxoro ziyolilarining faoliyati aks ettiriladi¹.

1993 yil sentyabrdan boplab O'zbekistonda Turkiya milliy ta'lim vazirligi tomonidan 7 ta litsey ochilib, dastlabki faoliyatini boshladi Bu litseylarga dars berish uchun Turkiyadan 26 nafar o'qituvchilar kelishdi. Turkiyadan kelgan o'qituvchi Maxir Ataman «O'zbekiston diyoriga qadam qo'yar ekanman, Turkiyada menga yuklatilgan mas'uliyat yana bir karra ortdi. Asli tomirimiz, dinimiz, tilimiz bir bo'lgan o'zbek xalqining yanada yuksaklarga ko'tarilishi yo'lida qo'limizdan kelgancha hissa qo'shish nasib etganidan g'oyat mamnunmiz» -dedi. 1993 yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ilmiy va madaniy aloqalarda katta hissa qo'shganliklari uchun o'zbek olimlari N.Maxmud, M.Sharif va Turkiyalik olim Ertuqul Ilmanga yuqorida nomlari tilga olingan asarlari uchun Xalqaro Qoshg'ariy mukofoti berildi. Shunday qilib, O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi do'stona munosabatlar, savdo iqtisodiy va madaniy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda va ikki xalq manfaatlari uchun xizmat qilmoqda.

¹ Lafasov M. O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari. Toshkent, 1995. –B. 49.

XULOSA.

Mustaqillikning o'tgan davri-tarix uchun bir lahza, bamisoli bepoyon osmon kengliklarida chaqnagan chaqin kabidir. Biroq istiqlolning murakkab, olg'alarga to'la, ziddiyatli bir paytida xalqimiz boy ma'naviyatini, mislsiz iqtidorini, beqiyos irodasini yaqqol namoyon qildi. Ayni ana shu muddatda mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar salmog'i va ko'lamini bilan bir necha o'n yilliklarga teng keladi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish, sobiq ittifoq bir-biriga ulab tashlagan moddiy zanjirlar uzilgach, ularning o'rnini qoplaydigan yangi imkoniyatlarni izlab topish lozim edi. Eng mushkul paytlarda aholini ijtimoiy muhofazalash bilan birga jahon hamjamiyatiga yo'l qidirish, dunyoni o'rganish, o'z imkoniyatlarini olam axliga ko'rsatish singari tajribamizda ko'rilmagan, mashaqqatli vazifalarni ham uddalash kerak edi. Ma'lumki, mustaqil taraqqiyot o'z qobig'iga o'ralib yashash emas, aksincha, jahon andozalariga mos qadam tashlash, dunyodagi rivojlangan, obro'li mamlakatlar bilan tengma-teng turib gaplashish, o'z mavqei va nufuzini topa bilish kabi og'ir masalalar yechimini ham taqozo etar edi.

O'zbekiston Respublikasida ana shunday bir vaziyatda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik yo'lini tanladi va bu borada sobitqadamlik bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Natijada qisqa fursatda xorijda O'zbekiston haqida, o'zbek xalqi to'g'risida to'la tasavvur shakllandi. Yurtboshimizning beqiyos iqtisodiy, ma'naviy, aqliy va jismoniy imkoniyatlari tan olinib boshlandi. Chet eldagi hamkorlar bu mamlakat bilan o'zaro manfaatli munosabatlarini yo'lga qo'yish mumkin va zarurligini tushunib yetdilar.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ishlarni sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan yosh mustaqilmamlakatlarda amalga oshirilayotgan ishlar bilan qiyoslaganda uning miqyosi va ko'lamini yana ham yorqinroq ko'zga tashlanadi. Boshqacha qilib aytganda xalqimiz bosh islohotchi-davlatimiz rahbarligida eng to'g'ri

yo'lni tanlay olganiga va unda sobitqadamlik hamda kelajakka qat'iy ishonch bilan borayotganini ko'rsatadi. gapirar

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar xususida ekanmiz, jahonning hozirgi eng rivojlangan mamlakatlari boshidan kechirgan o'tish davriga nazar tashlasak, qo'lga kiritgan yutug'larimiz naqadar ulug'vor ekaniga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

Bozor munosabatlari sharoitlarida millatlararo munosabatlar ham mazmun va ham shaklan tubdan o'zgaradi. Jahon taraqqiyoti bilan odim tashlar ekanmiz, mamlakat oldida turgan amaliy vazifalarni hal etishda ko'p millatli jamiyatimizning xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Tinchlikning bosh omili bo'lgan millatlararo inoqlik tajribasini doimo nazarda tutib, shunga amal qilmoq lozim bo'ladi. Jamiyatda tolerantlikning ro'li va ahamiyati uning mohiyatidan kelib chiqadi. Millatning turli mafkuraviy nazariyalarga, ma'naviy, diniy qarashlarga, madaniy hodisalarga, turli millat kishilarga va shu kabilarga munosabat yo'nalishi va darajasi ijtimoiy barqarorlikni ko'p jihatdan belgilab beradi. Tolerantlik fuqarolik jamiyatining eng muhim ma'naviy-ahloqiy prinspidir. Har bir alohida kishining tolerantlik darajasi ko'p jihatdan uning shaxsiy sifatlarini, ma'naviy yetukligi va madaniyatini, unig boshqa kishilar bilan munosabatini bildiradi. Hozirgi kunga kelib – tolerantlikni shakllantirish muammosi dolzab jihatga ega bo'lmoqda. Buning esa o'z navbatida ko'pgina sabablari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: jahon sivilizatsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy, ahloqiy va shu kabi boshqa belgilarga qarab tez tabaqalashib bormoqda hamda shu munosabat bilan o'zgalarga toqatsizlik, diniy ekstremizm; mahalliy urushlar oqibatida millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi; qochoqlarga oid muammolar, ma'naviy paradigmalarning o'zgarish va hokazo holatlar shu jumlagi kiradi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistondagi millatlararo munosabatlarni ta'minlash eng avvalo jamiyat tinchligi, yurt farovonligining muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov.I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'ida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.–Toshkent:O'zbekiston, 1998.
4. Karimov.I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 1999.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-Toshkent: O'zbekiston, 2000.
6. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq etiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -Toshkent:O'zbekiston, 2000.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -Toshkent:Ma'naviyat, 2008.
8. Karimov. I. A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish.-Toshkent: O'zbekiston, 2009.
9. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom-taraqqiyot imizning muhim omilidir”, // Ishonch gazetasi, 2010 yil 8 dekabr.
- 10.Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
- 11.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011.
- 12.Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati // Xalq so'zi, 2014 yil 17 may.
- 13.Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish

hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir// Xalq so'zi 2015-yil 11-aprel.

- 14.Karimov I. A. O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash-bizning farzandlik burchimizdir.// Xalq so'zi. 2015-yil 10 may

II. Me'yoriy-huquqiy manbalar

- 15.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2014.

III. O'quv, ilmiy adabiyotlar

- 16.G'afforov Ya.X., Xolliiev A. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. Toshkent: Universitet, 2003.
- 17.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O'quv qo'llanma.- Toshkent: O'zbekiston, 2001.
- 18.Milliy istiqlol g'oyasi:asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izoxli tajribaviy lug'at). –Toshkent:Yangi asr avlodi, 2002.
- 19.Murodov X., Muhammadaliev N., Jamolov G. O'zbekiston jahon hamajamiyati safida.-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
- 20.Jo'raev N, Fayzullaev T. O'zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. –Toshkent: Sharq, 2000.
- 21.Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Asosiy omillar. Toshkent, 2002 yil.
- 22.Orinboev A. Ma'naviyat – millatning kuch – qudrati . Toshkent, 2006.
- 23.Otamuratov S., Ramatov J., Xusanov., Ma'naviyat asoslari. Maruza matn.- Toshkent, 2000.
- 24.Qudratxo'jayev Sh.,Qirg'izboyev A.Terrorizm-taraqqiyot kushandasi.- Toshkent, 2002.
- 25.Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. –T.: Sharq, 2010.
- 26.Xolov A., Zamonov A., Bekturodov N. O'zbekiston tarixidan mukammal qo'llanma. –Toshkent: Davr press, 2010.

27.Karabayev U.X. Traditsionnaya narodnaya kultura: tendensii vozrojdeniya i razvitiya. Avtoref. dis. dokt. filos. nauk. – Toshkent, 1993.

28.Karimov B. Millat, inson va til: taraqqiyot muammolari. -Qarshi: Nasaf, 2003. .

IV. Davriy nashrlar

29.Anvar Boboyev. NATO: hamkorlik, xavfsizlik va ochiqlik.// Xalq so'zi gazetasi 2002-yil 26-noyabr.

30.Hamkorlik va mintaqaviy integratsiya xalqlarimiz manfaatiga xizmat qiladi. // Xalq so'zi 2004-yil 5-iyun.

31.Jo'rayev N. Prezident – Vatan va millat timsoli. // Muloqot. 2000, №1.

32.Markaziy Osiyo: kecha, bugun, ertaga.// O'zbekiston ovozi 2001-yil 29-dekabr.

33.Markaziy Osiyo: xavfsizlik va hamkorlik.// Xalq so'zi gazetasi 2000-yil 22-aprel. O'zbekiston va Rossiya – strategik hamkor. // Xalq so'zi gazetasi 2004-yil 17-iyun.

34.Shanxaydan boshlangan ezgu yo'l. // Xalq so'zi gazetasi 2004 yil 15 iyun.

V. Intertet saytlari

35.www.fikr.uz

36.www.gov.uz

37.www.ziyo.uz

38.www.ziynet.uz